

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA KODEKSI

## I BO‘LIM. UMUMIY QOIDALAR

### 1-bob. Asosiy qoidalar

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **1-modda. Oila to‘g‘risidagi qonunchilik hamda ularning vazifalari**

Oila to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan hamda unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 5-moddasi.*

Oila to‘g‘risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a‘zolarining mas‘ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a‘zolari o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta‘minlashdan iboratdir.

*(1-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **2-modda. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi**

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a‘zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-moddasining ikkinchi qismi, mazkur Kodeksning 14, 19, 20, 22, 23-moddalari.*

#### **3-modda. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi**

Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog‘ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 19, 46-moddalari.*

Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va faqat oiladagi boshqa a‘zolarining hamda o‘zga fuqarolarning axloqi, sha‘ni, qadr-qimmatini, sog‘lig‘i, huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur me‘yordagina cheklanishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 79-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 31-moddasi.*

#### **4-modda. Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi**

O‘zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir.

O‘zbekiston Respublikasida onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovordir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi.*

Ona va bola manfaatlarini muhofaza qilish ayollarning mehnati va sog‘lig‘ini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko‘rish, mehnatni onalik bilan bog‘lab qo‘shib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan ta‘minlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi XIV-bobining 1 paragrafi (“Ayollarga va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg‘ul shaxslarga beriladigan qo‘shimcha kafolatlar”), O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrda PF-1657-sonli “Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-sonli “Kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, “Ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun har oylik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizom (ro‘yxat raqami 1113, 14.03.2002-y.).*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **4<sup>1</sup>-modda. Ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish**

To‘rt nafar va undan ortiq o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan bolasi bo‘lgan oila ko‘p bolali oiladir. Bunda, agar to‘rt nafar va undan ortiq bolalaridan bir nafari yoki undan ko‘prog‘i ta‘limning kunduzgi shaklida (o‘rta maxsus va professional, oliy ta‘lim) ta‘lim tashkilotlarida o‘qiyotgan hamda yigirma ikki yoshga to‘lmagan bo‘lsa, bu oila ham ko‘p bolali oila deb hisoblanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Davlat ko‘p bolali oilalarga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar berilishini ta‘minlaydi.

*(4<sup>1</sup>-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **5-modda. Oila to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlar**

Oila to‘g‘risidagi qonunchilik nikoh tuzish, nikohning tugatilishi (tugashi)\* va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilaydi, oila a‘zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o‘rtasidagi, oila to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o‘zga shaxslar o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga olish shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi.

*\* Bundan buyon matnda “tugatilishi” deb yuritiladi.*

*(5-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **6-modda. Oilaviy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonunchiligining qo‘llanilishi**

Oila to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinmagan oila a‘zolari o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonunchiligi oilaviy munosabatlarning mohiyatiga zid kelmagan taqdirdagina qo‘llaniladi.

*(6-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2-moddasining beshinchi qismi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **7-modda. Oila to‘g‘risidagi va fuqarolik qonunchiligining o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llanilishi**

Oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar oila to‘g‘risidagi qonunchilik yoki taraflarning kelishuvi bilan tartibga solinmagan va bunday munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi fuqarolik qonunchiligi normalari mavjud bo‘lmagan taqdirda, mohiyati jihatidan ushbu munosabatlarga zid kelmaydigan oila to‘g‘risidagi va (yoki) fuqarolik qonunchiligining o‘xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normalari (qonun o‘xshashligi) qo‘llaniladi. Bunday normalar bo‘lmagan taqdirda oila a‘zolarining huquq va majburiyatlari oila hamda fuqarolik huquqining umumiy tamoyillariga tayangan holda (huquq o‘xshashligi), shuningdek insoniylik, oqillik va adolat tamoyillariga amal qilgan holda belgilanadi.

*(7-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **8-modda. Oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an‘analarning qo‘llanilishi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Qonunchilikda oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi tamoyillariga zid bo‘lmagan mahalliy urf-odat va an‘analar qo‘llaniladi.

*(8-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **9-modda. Xalqaro shartnomalarning qo‘llanilishi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining oila to‘g‘risidagi qonunchilikdagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

*(9-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### **2-bob. Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish**

#### **10-modda. Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va oilaviy majburiyatlarni bajarish**

Fuqarolar oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini o‘z xohishlariga ko‘ra tasarruf etadilar.

Oila a‘zolarining o‘z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o‘z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a‘zolari va o‘zga shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasi.*

### **11-modda. Oilaviy huquqlarni himoya qilish**

Oilaviy huquqlarni himoya qilish sud tomonidan fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bo'yicha, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa, vasiylik va homiylik organlari yoki boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni.*

Oilaviy huquqlarni himoya qilish ushbu Kodeksning tegishli moddalarida nazarda tutilgan usullarda amalga oshiriladi.

### **12-modda. Oilaviy munosabatlarda da'vo muddatining qo'llanilishi**

Oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi, ushbu Kodeks bilan belgilangan hollar bundan mustasnodir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 27-moddasining to'qqizinchi qismi, 136-moddasi birinchi, to'rtinchi qismlari, 139-moddasi uchinchi, to'rtinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 12-bobi.*

Da'vo muddatini belgilovchi normalarni qo'llashda sud O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga amal qiladi.

## **II BO'LIM. NIHOH**

### **3-bob. Nikoh tuzish tartibi va shartlari**

#### **13-modda. Nikoh tuzish tartibi**

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.

Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining ikkinchi qismi va 14-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001-yil 20-iyundagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 37-bandi.*

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

Uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Alohida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.

Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 25-bobi (“Nikoh tuzilganligini qayd etish”), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning V bobi (“Nikohni qayd etish”).*

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro‘yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo‘ysunishiga ko‘ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sudishlarini yuritish to‘g‘risidagi qodeksning 23-bobi, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.*

#### **14-modda. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi**

Nikoh tuzish ixtiyoriydir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-moddasining ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari” 72-bandining birinchi xatboshisi.*

Nikoh tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasi.*

#### **15-modda. Nikoh yoshi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi.

*(15-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-avgustdagi O‘RQ-558-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.08.2019-y., 03/19/558/3662-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug‘ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 51-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22 va 28-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47<sup>3</sup>-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125<sup>1</sup>-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning 72-bandi ikkinchi xatboshi.*

*(15-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

#### **16-modda. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar**

Nikoh tuzishga:

loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida;

nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning 81-bandi.*

### **17-modda. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"ginizom.*

*(17-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrdagi 447-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003-y., 1-son, 8-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nikohlanuvchi shaxslar ellik yoshdan oshgan bo'lsa, shuningdek ushbu Kodeks 13-moddasining beshinchi qismida ko'rsatilgan alohida hollar mavjud bo'lganda tibbiy ko'rikdan o'z roziligi bilan o'tkaziladi.

*(17-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

## **4-bob. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari**

### **18-modda. Er-xotin huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi**

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

### **19-modda. Oilada er va xotinning teng huquqliligi**

Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar.

### **20-modda. Er va xotinning familiya tanlash huquqi**

Nikoh tuzish vaqtida er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotining familiyasini umumiy familiya qilib tanlaydi yoki ularning har biri nikohgacha bo'lgan o'z familiyasini saqlab qoladi.

Er va xotindan birining o'z familiyasini o'zgartirishi boshqasining ham familiyasi o'zgarishiga olib kelmaydi.

### **21-modda. Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi**

Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal qiladilar.

### **22-modda. Er va xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari**

Er va xotinning har biri mashg'ulot turi, kasb va turar joy hamda yashash joyini tanlashda erklidir.



## **5-bob. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari**

### **23-modda. Er va xotinning umumiy mulki**

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek maxsus maqsadga mo'ljallanmagan boshqa pul to'lovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo'lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to'langan summalar va boshqalar) kiradi. Er va xotinning umumiy daromadlari hisobiga olingan ko'char va ko'chmas ashyolar, qimmatli qog'ozlari, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulklari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag'lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo'lishidan qat'i nazar, ular ham er va xotinning umumiy mol-mulki hisoblanadi.

Er va xotindan biri uy-ro'zg'or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.

Fermer xo'jaligi va dehqon xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkka nisbatan er va xotinning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari fermer xo'jaligi va dehqon xo'jaligi to'g'risidagi qonunlarda belgilanadi. Fermer xo'jaligi va dehqon xo'jaligining mol-mulkini bo'lish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 223 va 225-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 18-bobi ("Umumiy mulk"), O'zbekiston Respublikasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasining uchinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni 16-moddasining ikkinchi, uchinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1993-yil 16-apreldagi 13-sonli "Sudlar tomonidan mulkni ro'yxat (arest)dan chiqarish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanishi to'g'risida"gi qarori 10-bandining birinchi xatboshisi, 13-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 20-bandi.*

### **24-modda. Er va xotinning umumiy mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi**

Er va xotin ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga egadir.

Er va xotindan birining umumiy mol-mulkini tasarruf etishi bilan bog'liq bitim tuzilganda bu harakat boshqasining roziligiga ko'ra amalga oshirilayotganligini anglatadi.

Er-xotindan birining umumiy mol-mulkni tasarruf etish yuzasidan amalga oshirgan bitimi boshqasining bunga roziligi bo'lmaganligi sababligina bildirgan talabiga binoan va faqat bitimni amalga oshirgan ikkinchi tomon amalga oshirilgan bitim yuzasidan er (xotin) rozi emasligini oldindan bilgani yoki bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan hollarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Er (xotin) o'zining nomiga rasmiylashtirgan umumiy ko'chmas mol-mulknini tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 225-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 6-moddasining oltinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 22-bandi.*

### **25-modda. Er va xotinning har birining mulki**

Er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining o'z mulki hisoblanadi.

Nikoh davomida er-xotinning umumiy mulki yoki ulardan har birining mol-mulki yoxud er va xotindan birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag'lar (kapital ta'mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qo'shilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 21-bandi.*

### **26-modda. Er va xotinning shaxsiy foydalanishidagi buyumlar**

Qimmatbaho buyumlar va zebu-ziynatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shu kabilar), garchi nikoh davomida er va xotinning umumiy mablag'i hisobiga olingan bo'lsa ham, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi.

### **27-modda. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish**

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish er va xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohda bo'lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulkdagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiy mol-mulknini bo'lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'lib olinishi mumkin. Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulknini bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanishi mumkin.

Nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulknini bo'lish, shuningdek er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Umumiy mol-mulknini bo'lishda sud er va xotinning har biriga mulkning qaysi qismi berilishi lozimligini aniqlaydi. Er (xotin)ga unga qarashli ulushdan oshiq qiymatga ega bo'lgan mol-mulk beriladigan hollarda, xotin (er)ga tegishli pul yoki o'zga kompensatsiya belgilanishi mumkin.

Oilaviy munosabatlar tugatilganda, sud er va xotin alohida yashagan davrda orttirgan mol-mulknini ulardan har birining o'z mulki deb topishi mumkin.



Voyaga yetmagan bolalar ehtiyojini qondirish uchun olingan buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal, maktab va sport jihozlari, musiqa asboblari, bolalar kutubxonasi va boshqalar) bo‘linmaydi hamda bolalar er va xotindan qaysi biri bilan yashasa, unga kompensatsiyasiz beriladi.

Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o‘rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo‘yilgan omonatlar o‘sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish paytida e‘tiborga olinmaydi.

Er va xotinning umumiy mol-mulki ular nikohda turgan davrda bo‘lingan taqdirda, er va xotin mol-mulking bo‘linmay qolgan qismi, shuningdek er va xotin tomonidan ular nikohda turgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birgalikdagi umumiy mulkini tashkil qiladi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi talablariga nisbatan uch yillik da’vo muddati qo‘llaniladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 150, 223, 226-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 22-bandining ikkinchi xatboshisi, 23, 25, 28-bandlari.*

### **28-modda. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda ulushlarni aniqlash**

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda hamda ularning shu mol-mulkdagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o‘rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, er va xotinning ulushlari teng deb hisoblanadi.

Sud voyaga yetmagan bolalar manfaatlaridan va (yoki) er va xotindan birining e‘tiborga loyiq manfaatini hisobga olib, jumladan, agar er yoki xotin uzrsiz sabablarga ko‘ra daromad olmagan bo‘lsa yoxud er va xotinning umumiy mol-mulkini oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflagan bo‘lsa, er va xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushlari tengligidan chekinishga haqlidir.

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda er va xotinning umumiy qarzlari ularga belgilangan ulushlarga mutanosib ravishda har ikkalasi o‘rtasida taqsimlanadi.

Agar er va xotindan biri umumiy mol-mulkni er yoki xotinning erkiga zid ravishda va oila manfaatiga mos bo‘lmagan holda o‘z xohishiga ko‘ra sarflagan yoki boshqa shaxsga o‘tkazgan bo‘lsa, uni bo‘lishda bu mol-mulk yoki uning qiymati hisobga olinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 20, 24-bandlari.*

## **6-bob. Er va xotin mol-mulking shartnomaviy tartibi**

### **29-modda. Nikoh shartnomasi**

Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi.

### **30-modda. Nikoh shartnomasi tuzish**

Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

### **31-modda. Nikoh shartnomasining mazmuni**

Er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan (ushbu Kodeksning [23-moddasi](#)) tartibini o'zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqlidir.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritishga haqli.

Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi yoki muayyan shart-sharoitning yuzaga kelishi yoxud kelmasligiga bog'liq qilib qo'yilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nikoh shartnomasi er-xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqatini, ularning o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta'minot olishga muhtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib qo'yuvchi yoxud oila to'g'risidagi qonunchilikning normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni nazarda tuta olmaydi.

*(31-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 24-bandi ikkinchi xatboshisi.*

### **32-modda. Nikoh shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish**

Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 28-bobi.*

Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno.

### **33-modda. Nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish**

Nikoh shartnomasi sud tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha to‘la yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 9-bobi § 2.*

Nikoh shartnomasining shartlari ushbu Kodeks 31-moddasi beshinchi qismining talablariga zid kelsa, sud er-xotindan birining talabiga binoan nikoh shartnomasini to‘la yoki qisman haqiqiy emas deb topishi mumkin.

### **34-modda. Haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish**

Er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha haq undirish faqat uning mol-mulkiga qaratilishi mumkin. Ushbu mol-mulk yetarli bo‘lmagan taqdirda haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish uchun kreditor qarzdor er (xotin) ulushini er-xotinning umumiy mol-mulkidan ajratib undirib berilishini talab qilishga haqlidir.

Agar sud er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha orttirilgan barcha ashyolar oila ehtiyojlari uchun ishlatilganligini aniqlasa, er-xotinning umumiy majburiyatlari bo‘yicha, shuningdek er (xotin)ning majburiyatlari bo‘yicha haq undirish er-xotinning umumiy mol-mulkiga qaratiladi. Bu mol-mulk yetarli bo‘lmagan taqdirda er-xotin ko‘rsatib o‘tilgan majburiyatlar yuzasidan ularning har biriga qarashli mol-mulk bilan sherik javobgar bo‘ladilar.

Agar er-xotinning umumiy mol-mulki ularning biri tomonidan jinoiy yo‘l bilan topilgan mablag‘ hisobiga orttirilgani yoki ko‘paygani sud hukmi bilan aniqlangan bo‘lsa, haqni undirish tegishli ravishda er-xotinning umumiy mol-mulkiga yoki uning bir qismiga qaratilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari yetkazgan zarar uchun javobgarligi fuqarolik qonunchiligi bilan belgilanadi.

*(34-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 227, 993—995-moddalari.*

### **35-modda. Nikoh shartnomasi tuzish, uni o‘zgartirish va bekor qilishda kreditorlar huquqlarining kafolatlari**

Er (xotin) nikoh shartnomasi tuzayotgani, uni o‘zgartirayotgani yoki bekor qilayotgani to‘g‘risida o‘z kreditorini (kreditorlarini) xabardor qilishi shart. Ushbu majburiyatni bajarmagan taqdirda er yoki xotin, nikoh shartnomasi mazmunidan qat’i nazar, o‘z majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘ladi.

Qarzdor er (xotin)ning kreditori (kreditorlari) sharoit jiddiy o‘zgargani tufayli nikoh shartnomasining shartlarini qonunda belgilangan tartibda o‘zgartirish yoki bekor qilishni talab qilishga haqli.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 383-moddasi.*

### **36-modda. Er-xotin o‘rtasidagi mulkiy-shartnomaviy munosabatlar**

Er-xotin qonunda yo‘l qo‘yiladigan barcha mulkiy-shartnomaviy munosabatlarga o‘zaro kirishishga haqlidir.

Er-xotin o'rtasida tuzilgan, ulardan birining huquqlarini cheklashga qaratilgan kelishuvlar haqiqiy hisoblanmaydi.

## **7-bob. Nikohning tugatilishi**

### **37-modda. Nikohning tugatilish asoslari**

Er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida nikoh tugaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 36-moddasi.*

Nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizaga muvofiq tugatilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 2-bandi.*

### **38-modda. Nikohdan ajratish tartibi**

Nikohdan ajratish sud tartibida, ushbu Kodeksning 42 va 43-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 3 — 18, 29, 31, 32-bandlari.*

### **39-modda. Erning nikohdan ajratish to'g'risida talab qo'yishini man etadigan hollar**

Xotining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotining roziligisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli emas.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 6-bandi.*

### **40-modda. Nikohdan sud tartibida ajratish**

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida da'vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining II bo'limi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi Qarorining 3 — 18, 29, 31, 32-bandlari.*

Sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotining yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 15-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sud er-xotonga yarashish uchun muhlat tayinlab, ishning ko‘rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig‘inining yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo‘lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig‘inining yarashtirish komissiyasini er-xotinni yarashtirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish uchun uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

*(40-modda O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-yanvardagi O‘RQ-456-sonli Qonuniga asosan uchinchi qismi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son)*

#### **41-modda. Sudning nikohdan ajratish asoslari**

Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo‘q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 16-bandi.*

#### **42-modda. Er-xotinning o‘zaro roziligi bo‘lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish**

Voyaga yetmagan bolalari bo‘lmagan er-xotin nikohdan ajratishga o‘zaro rozi bo‘lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning VI bobi (“Nikohdan ajratish”).*

Er-xotin o‘rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotonga moddiy ta‘minot berish to‘g‘risida yoki ularning birgalikdagi umumiy mulki bo‘lgan mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risida nizo bo‘lgan taqdirda er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 3 va 5-bandlari.*

#### **43-modda. Er-xotindan birining arizasi bo‘yicha fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish**

Agar er-xotindan biri:

sud tomonidan bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 30-bobi (“Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqaroni o‘lgan deb e‘lon qilish”).*

sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 31-bobi ("Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish").*

sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra ular fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 50-moddasi.*

Agar bolalar haqida, er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash haqida nizo mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 4 va 5-bandlari.*

#### **44-modda. Nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar**

Nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishga doir kelishuvni ko'rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan masalalar bo'yicha er va xotin o'rtasida kelishuv bo'lmagan taqdirda, shuningdek ushbu kelishuv bolalar yoki er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud:

nikohdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;

voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;

er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko'ra ularning birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lishi;

er (xotin)dan ta'minot olishga haqli bo'lgan xotin (er)ning talabiga ko'ra ana shu ta'minot miqdorini belgilashi shart.

Mol-mulkni bo'lish uchinchi shaxslarning manfaatiga daxldor bo'lgan hollarda sud mol-mulkni bo'lish talabini alohida ish yuritish uchun ajratadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 12, 19-bandi.*

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganida to'yni o'tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi.





*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 20-bandi uchinchi xatboshisi.*

#### **45-modda. Sudning nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini chiqarishida davlat boji miqdorini belgilash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sud nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini chiqarish paytida nikohdan ajratish to‘g‘risidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining guvohnomasi berilayotganda er-xotinning har ikkalasi yoki ulardan biri to‘laydigan davlat boji miqdorini belgilashi lozim. Agar sud bu bojni er-xotinning har ikkalasidan undirishni lozim deb topsa, ularning har biri to‘laydigan boj miqdorini belgilaydi.

*(45-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-255 sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 37-son, 313-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi 533-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat boji stavkalari”.*

#### **46-modda. Nikohdan ajratilganda er (xotin)ning o‘z familiyasini o‘zgartirishi**

Nikohga kirish vaqtida o‘z familiyasini o‘zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli yoxud uning xohishiga binoan sud tomonidan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi qaror chiqarilayotganda unga nikohgacha bo‘lgan familiyasi qaytarilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 220-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 30-bandi.*

#### **47-modda. Nikohdan ajratilganda nikohning tugatilish vaqti**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida nikohdan ajratilganlik ro‘yxatga olingan kundan boshlab tugatiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 32-bandi.*

*(47-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-255 sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 37-son, 313-modda)*

#### **48-modda. Sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilingan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan hollarda nikohning tiklanishi**

Sud tomonidan vafot etgan deb e‘lon qilingan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan va tegishli sud qarorlari bekor qilingan hollarda, nikoh er-xotinning birgalikdagi arizasiga ko‘ra fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi tomonidan tiklanishi mumkin.

Agar er (xotin) yangi nikohga kirgan bo‘lsa, nikohni tiklash mumkin emas.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 35, 37-moddalari.*

## **8-bob. Nikohning haqiqiy emasligi**

### **49-modda. Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nikoh quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi:

ushbu Kodeksning 14—16-moddalarida belgilangan shartlar buzilganda;

soxta nikoh tuzilganda, ya’ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko‘zlamay nikoh qayd qildirganda;

nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etsa.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 34-bandi.*

*(49-modda matni O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 6-apreldagi O‘RQ-84-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2007-y., 14-son, 133-modda)*

### **50-modda. Nikohni haqiqiy emas deb topish tartibi**

Nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda pasportga yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatga tegishli belgi qo‘yiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiringach, o‘n kun ichida undan ko‘chirma nikoh tuzilganligi ro‘yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 33-bandi.*

### **51-modda. Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish**

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning ona-otasi yoki homiysi, shuningdek vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Ish sudda hal qilinish paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo‘lsa, nikoh faqat uning talabi bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ish, agar er-xotin (ulardan biri) ish sudda ko‘rilayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo‘lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko‘rib chiqiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 15-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47<sup>3</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125<sup>1</sup>-moddasi.*

### **52-modda. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lganda tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish**

Ushbu Kodeksning 16-moddasida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lganda tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Agar ish hal qilinish paytigacha nikohni tuzish uchun monelik qiladigan holatlar tugagan bo'lsa, sud nikohni o'sha holatlar tugagan paytdan boshlab haqiqiy deb topishga haqli.

Ushbu Kodeksning 16-moddasida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha nikohni haqiqiy emas deb topishni er-xotin, shu nikohning tuzilishi natijasida huquqlari buzilgan shaxslar, shuningdek vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishni sud vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko'rib chiqadi.

### **53-modda. Majburlab tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Majburlab tuzilgan nikoh jabrlanuvchi (uning qonuniy vakillari) yoki prokurorning arizasi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 14-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasi.*

*(53-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

### **54-modda. Soxta nikohni haqiqiy emas deb topish**

Er-xotin soxta nikoh qayd qildirgan va oila qurmagan bo'lsalar, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Soxta nikohni haqiqiy emas deb topishni prokuror talab qilishga haqli, er (xotin) oila qurish maqsadisiz nikohga kirgan hollarda esa, bunday talab xotin (er) tomonidan ham qo'yilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 34-bandining oltinchi xatboshisi.*

### **55-modda. Nikohni haqiqiy emas deb hisoblash vaqti**

Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan nikoh tuzilgan vaqtdan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

### **56-modda. Nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlari**

Haqiqiy emas deb topilgan nikoh er-xotin uchun ushbu Kodeksda belgilangan shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Nikohi haqiqiy emas deb topilgan shaxslarning mulkiy huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasi **Fuqarolik kodeksi** bilan tartibga solinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 114-moddasi.*

Nikohning haqiqiy emas deb topilishi shunday nikohdan tug‘ilgan yoki nikoh haqiqiy emas deb topilgan kundan keyin uch yuz kun ichida tug‘ilgan bolalarning huquqlariga ta’sir etmaydi.

Sud nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida hal qiluv qarori chiqarishda shunday nikoh tuzilishi bilan huquqi buzilgan er (xotin)ni (insofli er (xotin)ni) ushbu Kodeksning 118 va 119-moddalariga muvofiq xotin yoki eridan ta’minot olish huquqiga ega deb topishga haqlidir, nikohni haqiqiy emas deb topish vaqtiga qadar birgalikda orttirilgan mol-mulkni bo‘lishga nisbatan esa, ushbu Kodeksning 23, 27 va 28-moddalarida belgilangan qoidalarni tatbiq etishga, shuningdek nikoh shartnomasini to‘la yoki qisman haqiqiy deb topishga haqlidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Insofli er (xotin) o‘ziga yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni qoplashni fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha talab qilishga haqli.

*(56-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985 va 1021-moddalari.*

Insofli er (xotin) nikoh haqiqiy emas deb topilganda, nikoh tuzish davlat ro‘yxatiga olingan vaqtda tanlagan familiyasini saqlab qolishga haqlidir.

### **III BO‘LIM. QON-QARINDOSHLIK VA BOLALARNING NASL-NASABINI BELGILASH**

#### **9-bob. Qarindoshlik, qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilik**

##### **57-modda. Qarindoshlik**

Bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o‘rtasidagi to‘g‘ri shajara bo‘yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya’ni tug‘ilish soni bilan belgilanadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to‘g‘ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan — ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan — uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o‘xshashlar yon shajara bo‘yicha qarindoshlar hisoblanadi va hokazo.

To‘g‘ri shajara bo‘yicha qarindoshlar yon shajara bo‘yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir.

Ikki shaxs o‘rtasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardan birining o‘zini hisobga qo‘shmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi.

Hisob ajdodlar tomon to‘g‘ri shajara bo‘yicha ular uchun umumiy bo‘lgan shaxsga (ajdodga) qarab va undan esa, avlodlar tomon — ulardan boshqasiga qarab olib boriladi.

Tug‘ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi darajasida, tog‘a va amaki, amma va xola o‘z jiyanlari bilan qarindoshlikning — uchinchi, tog‘avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar esa — to‘rtinchi darajasida turadilar.

##### **58-modda. Yot aralashmagan va yot aralashgan qarindoshlik**

Aka-uka va opa-singillar yot aralashmagan va yot aralashgan qarindosh bo‘lishi mumkin. Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan bo‘lsa, yot aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki aksincha ona bir ota boshqa bo‘lsa, yot aralashgan qarindosh hisoblanadi. Yot aralashmagan

qarindoshlikda aka-uka va opa-singillar tugʻishgan, yot aralashgan qarindoshlikda esa, aka-uka va opa-singillar oʻgay hisoblanadi.

Er-xotinning ilgari nikohlaridan boʻlgan bolalari oʻzaro qarindosh hisoblanmaydi.

### **59-modda. Qayin-boʻyinchilik va quda-andachilik**

Er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-boʻyinchilik va quda-andachilik) oʻzaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

## **10-bob. Bolalarning nasl-nasabini belgilash**

### **60-modda. Bolaning nasl-nasabini belgilash asoslari**

Bolaning shu onadan tugʻilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga koʻra, bola tibbiy muassasada tugʻilmagan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining oʻlimi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan soʻng uch yuz kun ichida tugʻilgan bolasi nikohda tugʻilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tugʻilsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan boʻlsa, bola yangi nikohda tugʻilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega.

### **61-modda. Ota-onaning arizasi boʻyicha bolaning nasl-nasabini belgilash**

Bolaning onasi bilan nikohda boʻlmagan shaxsning otaligi oʻzini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Ona vafot etganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati boʻlmaganda yoki u onalik huquqidan mahrum qilinganda, otalik vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda oʻzini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning arizasiga binoan belgilanadi.

Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan boʻlsa, otalikni belgilash toʻgʻrisidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash toʻgʻrisidagi ariza bolaning tugʻilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek bola tugʻilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar otalikni belgilash toʻgʻrisida bola tugʻilgandan soʻng er-xotin birgalikda ariza berishining imkoni boʻlmay qolishi yoki mushkul boʻlishini koʻrsatuvchi asoslar mavjud boʻlsa, tugʻilajak bolaning oʻzaro nikohda boʻlmagan ota-onasi shunday arizani ona homiladorlik vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga berishga haqli.

Otalikni belgilash rad etilganda, oʻzini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari” IV bobining 2 paragrafi (“Otalikni belgilash”), Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 8-sonli “Sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni koʻrishda qonunchilikning qoʻllanilishi toʻgʻrisida”gi qarori 2-bandi, 3-bandining ikkinchi xatboshisi.*

### **62-modda. Otalikning sud tartibida belgilanishi**

O‘zaro nikohda bo‘lmagan ota-onadan bola tug‘ilgan taqdirda, ota-onaning birgalikdagi arizasi yoki bola otasining arizasi bo‘lmasa, ushbu Kodeksning 61-moddasida ko‘rsatilgan hollarda otalik sud tartibida belgilanishi mumkin.

Otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiysi)ning yoxud bola kimning qaramog‘ida bo‘lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek bola voyaga yetganidan keyin uning o‘zi bergan arizaga muvofiq amalga oshiriladi.

Otalikni belgilayotganda sud bolaning onasi bola tug‘ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro‘zg‘or yuritganligi yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta‘minlab turganliklarini yoki javobgarining otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarni e‘tiborga oladi.

Bolaning onasi bilan nikohda bo‘lmagan, lekin o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs vafot etgan taqdirda uning otalik fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin sud shu qaror nusxasini bola tug‘ilganligi ro‘yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboradi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 28-bobi (“Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash”), O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 8-sonli “Sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko‘rishda qonunchilikning qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1991-yil 20-dekabrdagi 5-sonli “Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori.*

### **63-modda. Otalik (onalik) to‘g‘risida e‘tiroz bildirish**

Tug‘ilishni yozish daftaridagi tug‘ilishga oid yozuv bolaning unda ko‘rsatilgan ota-onadan tug‘ilganligini tasdiqlovchi dalil hisoblanadi.

Bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxs unga bunday yozuv ma‘lum bo‘lgan yoki ma‘lum bo‘lishi lozim bo‘lgan vaqtdan e‘tiboran bir yil mobaynida ana shu yozuv to‘g‘risida sud tartibida e‘tiroz bildirishga haqlidir. Agar shu vaqtga kelib, bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxs voyaga yetmagan bo‘lsa, bir yillik muddat mazkur shaxs o‘n sakkiz yoshga to‘lgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

### **64-modda. O‘zaro nikohda bo‘lmagan shaxslardan tug‘ilgan bolalarning huquq va majburiyatlari**

Ushbu Kodeksning 61 va 62-moddalarida nazarda tutilgan tartibda otalik belgilanganda bolalar ota-onasi va ularning qarindoshlariga nisbatan o‘zaro nikohda bo‘lgan shaxslardan tug‘ilgan bolalar bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar.

## **IV BO‘LIM. OTA-ONA HAMDA VOYAGA YETMAGAN BOLALARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **11-bob. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari**

#### **65-modda. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi**

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amxo‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasnodir.

Bola o‘z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o‘z manfaatlari ta‘minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega.



Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 13 va 24-moddalari.*

### **66-modda. Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi**

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Ota va ona alohida yashagan holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-ona turli davlatlarda yashagani taqdirda ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni 31-moddasining beshinchi qismi.*

Favqulodda vaziyatlarga tushib qolgan bola (ushlab turish, qamoqqa olish, hibsga olish, davolash muassasasida bo'lish va boshqa hollarda) o'z ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan qonunda belgilangan tartibda ko'rishish huquqiga ega.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonunining 22-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 46-moddasining birinchi qismi, 48-moddasining birinchi qismi, 230, 477-moddalari.*

### **67-modda. Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi**

Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining birinchi qism 28-moddasi.*

Bola ota-ona (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalaniş huquqiga ega.

Bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda yoxud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini so'rab, vasiylik va homiylik organiga, o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bolaning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'ilganligidan, uning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilganligidan xabardor bo'lgan shaxslar bu haqda bola ayni paytda yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga ma'lum qilishi shart. Shunday ma'lumotlarni olgach, vasiylik

va homiylik organi bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan zarur choralar koʻrishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunining 11-moddasi.*

### **68-modda. Bolaning oʻz fikrini ifoda etish huquqi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda bola oʻz fikrini ifoda qilishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki maʼmuriy muhokama davrida soʻzlashga haqlidir. Bunda qaror qabul qilishga vakolatli boʻlgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qatʼi nazar, koʻrib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerak.

*(68-moddaning matni Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi OʻRQ-608-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/608/0278-son)*



*LexUZ sharhi*

*Masalan, qarang: mazkur Kodeks 70-moddasining toʻrtinchi qismi, 82-moddasining beshinchi qismi, 155-moddasi, 194-moddasining toʻrtinchi qismi, Oʻzbekiston Respublikasi “Vasiylik va homiylik toʻgʻrisida”gi Qonuni 29-moddasining toʻrtinchi qismi, 30-moddasining uchinchi qismi, 32-moddasining ikkinchi qismi, 35-moddasining uchinchi qismi, Oʻzbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunining 15-moddasi.*

### **69-modda. Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi**

Bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 19-moddasi.*

Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi — otasining ismiga koʻra beriladi.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda boʻlganda ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga koʻra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy anʼanalarga koʻra boboning ismi boʻyicha familiya berilishi mumkin. Ota-ona oʻrtasida bolaning ismi va (yoki) familiyasi boʻyicha kelishuv boʻlmaganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunining 9-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning 22 — 27-bandlari.*

### **70-modda. Bolaning ismi va familiyasini oʻzgartirish**

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola oʻn olti yoshga toʻlguncha bola manfaatlarini eʼtiborga olib, uning ismini oʻzgartirishga, shuningdek unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab oʻzgartirishga haqlidir.

Agar ota-ona alohida yashasa va bola bilan birga yashovchi ota (ona) bolaga oʻz familiyasini berishni xohlasa, vasiylik va homiylik organi bu masalani bolaning manfaatlarini va ona (ota)ning fikrini hisobga olgan holda hal qiladi. Ota yoki onaning turgan joyini aniqlash

mumkin bo'lganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, shuningdek ota yoki ona bolaga ta'minot berish va uni tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan uzrsiz sabablarga ko'ra bo'yin tovlagan hollarda ota yoki onaning fikrini hisobga olish shart emas.

Agar bola o'zaro nikohda bo'lgan shaxslardan tug'ilgan va otalik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib, uning familiyasini onaning murojaat qilgan davridagi familiyasiga almashtirish uchun ruxsat berishga haqli.

O'n yoshga to'lgan bolaning ismi yoki familiyasini o'zgartirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

## **12-bob. Ota-onaning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari**

### **71-modda. Ota-ona huquq va majburiyatlarining tengligi**

Ota-ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar (ota-onalik huquqlari). Ushbu bobda nazarda tutilgan ota-onalik huquqlari bolalar o'n sakkiz yoshga to'lganlarida (voyaga yetganda), shuningdek voyaga yetmagan bolalar nikohga kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda bolalar voyaga yetmasdan to'la muomala layoqatiga ega bo'lganlarida tugaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 28-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 3-bandi.*

### **72-modda. Voyaga yetmagan ota-onaning huquqlari**

Voyaga yetmagan ota-ona o'z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqiga ega.

O'zaro nikohda bo'lgan voyaga yetmagan ota-ona ulardan bola tug'ilganda hamda ularning onaligi va (yoki) otaligi belgilanganda o'n olti yoshga to'lishlari bilan ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar. Voyaga yetmagan ota-ona o'n olti yoshga yetgunga qadar, bolani voyaga yetmagan ota-ona bilan birgalikda tarbiyalash uchun bolaga vasiy tayinlanishi mumkin. Bolaning vasiysi bilan voyaga yetmagan ota-ona o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Voyaga yetmagan ota-ona o'z otaligi va onaligini umumiy asoslarda e'tirof etish yoki bunga e'tiroz bildirish huquqiga egadir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi 8-sonli "Sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorining 4-bandi.*

### **73-modda. Ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari**

Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi, mazkur Kodeksning 75,76-moddalari.*

Ota-ona o‘z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega.  
*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-ona bolalarining qonunchilikda belgilangan zarur darajada ta‘lim olishini ta‘minlashi shart.

*(73-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunining 51-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli “Bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandi.*

#### **74-modda. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari**

Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi.

Ota-ona o‘z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo‘lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar.

Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-ona va bolalar manfaatlarini o‘rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganda, ota-ona o‘z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas. Ota-ona va bolalar o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart.

#### **75-modda. Ota-onalik huquqini amalga oshirish**

Ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Bolalar manfaatlarini ta‘minlash ota-ona g‘amxo‘rligining asosini tashkil qilishi lozim.

Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo‘pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan xoli bo‘lishi kerak.

O‘z ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-ona qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasi..*

Bolalarning ta‘lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o‘zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-ona o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lsa, ular (ulardan biri) bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidir.

Ota-ona alohida yashaganda bolalarning qayerda yashashi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota-ona o‘rtasida kelishuv bo‘lmasa, nizo sud tomonidan bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud, bolaning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog‘lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onasining axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o‘rtasidagi munosabatlarni, bolani

tarbiyalash va uning kamoloti uchun shart-sharoitlar (ota-onasining mashg'ulot turi, ish tartibi, moddiy hamda oilaviy ahvoli va boshqalar) yaratish imkoniyatini hisobga oladi.

### **76-modda. Boladan alohida yashayotgan ota(ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirishi**

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko'rishish, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta'lim olishi masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega.

Bola bilan birga yashayotgan ota (ona) bolaning ona (ota)si bilan ko'rishishiga, agar bunday ko'rishish bolaning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida yozma ravishda kelishuv tuzishga haqlidir. Agar ota-ona kelisha olmasalar, nizo ota-ona (yoki ulardan biri)ning talabiga binoan sud tomonidan vasiylik va homiylik organi ishtirokida hal qilinadi. Sudning hal qiluv qarori bajarilmaganda aybdor ota-onaga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi. Sudning hal qiluv qarori qasddan bajarilmagan taqdirda sud boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning talabiga binoan bola manfaatlarini va uning fikrini hisobga olgan holda bolani unga berish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

*(76-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 71-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 198<sup>l</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 232-moddasi.*

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va boshqa shunga o'xshash muassasalardan o'z bolasi to'g'risida axborot olish huquqiga ega. Ota (ona) tomonidan bolaning hayoti va sog'lig'i uchun xavf-xatar bo'lgandagina, ularga axborot berish rad etilishi mumkin. Axborot berishning rad etilishi ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 7-bandi.*

### **77-modda. Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlarning bola bilan ko'rishib turish huquqi**

Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlar bola bilan ko'rishib turish huquqiga ega.

Ota-ona (ulardan biri) yaqin qarindoshlarning bola bilan ko'rishishiga imkoniyat bermasalar, vasiylik va homiylik organi ota-onani (ulardan birini) bunday imkoniyat berishga majbur qilishi mumkin.

Agar ota-ona (ulardan biri) vasiylik va homiylik organining qarorini bajarmasa, bolaning yaqin qarindoshlari yoki vasiylik va homiylik organi bola bilan ko'rishib turishga to'sqinlik qiluvchi hollarni bartaraf qilish haqida da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Sud bolaning manfaatlarini va bolaning fikrini hisobga olgan holda nizoni hal qiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sudning hal qiluv qarori bajarilmagan taqdirda aybdor ota (ona)ga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

*(77-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 71-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 198<sup>1</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 232-moddasi.*

### **78-modda. Ota-onalik huquqini himoya qilish**

Ota-ona bolani qonunga asoslanmasdan ushlab turgan har qanday shaxsdan uning qaytarilishini talab qilishga haqli. Nizo chiqqan taqdirda, ota-ona o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga haqli. Bu talablarni ko'rishda sud bolani ota-onasiga qaytarish uning manfaatlariga zid degan xulosaga kelsa, bolaning fikrini hisobga olgan holda ota-onaning da'vosini rad qilishga haqli.

Agar sud ota-ona ham, bolani o'z qaramog'iga olgan shaxs ham bolaga lozim darajada tarbiya berishni hamda uni kamolotga yetkazishni ta'minlay olmaydilar, deb topsa, bolani vasiylik va homiylik organi qaramog'iga olib beradi.

### **79-modda. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish**

Ota-ona (ulardan biri) quyidagi hollarda:

ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;

uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa;

muttasil ichkilikbozlik yoki giyovandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa;

o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 15-bandi.*

### **80-modda. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish tartibi**

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona)ning (ularning o'rni bosuvchi shaxslarning), prokurorning, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da'vosiga binoan ko'riladi.

*(80-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*



Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (ularning biridan) aliment undirish masalasini hal qiladi.

Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishlarni ko'rishda ota-ona (ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, bu haqda prokurorga xabar berishi shart.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin uch kun ichida ushbu qarorning ko'chirmasini bolaning tug'ilganligi davlat tomonidan ro'yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 9 – 18-bandlari.*

### **81-modda. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

*(81-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi XIV-bobining 1 paragrafi ("Ayollarga va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarga beriladigan qo'shimcha kafolatlar"), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrda PF-1657-sonli "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-sonli "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, "Ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun har oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1113, 14.03.2002-y.).*

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasi sud tomonidan uy-joy to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

*(81-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 32-moddasi.*

Ota-onasi (ulardan biri) o'ziga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bola, agar u farzandlikka olingan bo'lmasa, turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish

huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota (ona)si va boshqa qon-qarindoshlari bilan tugʻishganlik faktiga asoslangan barcha mulkiy huquqlarini, jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi.

Bolani ota yoki onasiga berishning imkoniyati boʻlmagan yoki ota-onaning har ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilingan taqdirda, bola vasiylik va homiylik organining qaramogʻiga olib beriladi.

Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda bolani farzandlikka olishga ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi toʻgʻrisidagi sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan keyin kamida olti oy oʻtgach yoʻl qoʻyiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli “Bolalar tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qoʻllash amaliyoti toʻgʻrisida”gi qarorining 8, 18, 19-bandlari.*

### **82-modda. Ota-onalik huquqini tiklash**

Ota-ona (ulardan biri) oʻz xulq-atvorini, turmush tarzini va (yoki) bola tarbiyasiga boʻlgan munosabatini oʻzgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin.

Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) daʼvosiga binoan sud tartibida amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqini tiklash toʻgʻrisidagi ishlar vasiylik va homiylik organining, shuningdek prokurorning ishtirokida koʻrib chiqiladi.

Ota-onaning (ulardan birining) ota-onalik huquqini tiklash toʻgʻrisidagi daʼvosi bilan birga bolani ota-onaga (ulardan biriga) qaytarish toʻgʻrisidagi talabi ham koʻrib chiqilishi mumkin.

Agar ota-onalik huquqining tiklanishi bola manfaatlariga zid boʻlsa, sud bolaning fikrini hisobga olgan holda ota-onaning (ulardan birining) ota-onalik huquqini tiklash toʻgʻrisidagi daʼvosini qanoatlantirishni rad qilishga haqlidir.

Oʻn yoshga toʻlgan bolaga nisbatan ota-onalik huquqining tiklanishiga faqat uning roziligi bilan yoʻl qoʻyiladi.

Bola farzandlikka olingan va farzandlikka olish bekor qilinmagan boʻlsa, ota-onalik huquqini tiklashga yoʻl qoʻyilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli “Bolalar tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qoʻllash amaliyoti toʻgʻrisida”gi qarorining 20 va 21-bandlari.*

### **83-modda. Ota-onalik huquqining cheklanishi**

Sud bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilmay turib, bolani ota-onadan (ularning biridan) olish toʻgʻrisida hal qiluv qarori chiqarishi (ota-onalik huquqini cheklashi) mumkin.

Bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish ota-onaga (ulardan biriga) bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa surunkali kasallik, ogʻir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli boʻlsa, ota-onalik huquqini cheklashga yoʻl qoʻyiladi.

Agar bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning xulq-atvori bola uchun xavf tugʻdirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa yetarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yoʻl qoʻyiladi. Agar ota-ona (ulardan biri) oʻz xulq-atvorini oʻzgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan ota-onalik huquqini cheklash toʻgʻrisidagi hal qiluv qarori chiqarilgandan keyin olti oy oʻtgach, ota-onalik huquqidan mahrum qilish toʻgʻrisida daʼvo taqdim etishi shart. Vasiylik va homiylik organi

bolaning manfaatlarini e'tiborga olib ota-onani (ulardan birini) bu muddat o'tmasdan turib, ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqida da'vo taqdim etishga haqli.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi da'vo bolaning yaqin qarindoshlari, voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyati qonun bilan zimmasiga yuklatilgan organlar va muassasalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim muassasalari va boshqa muassasalar, shuningdek prokuror tomonidan taqdim etilishi mumkin.

*(83-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrda O'RQ-653-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)*

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'riladi.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlarni ko'rishda sud ota-onadan (ularning biridan) bolaning ta'minoti uchun aliment undirish masalasini hal qiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrda 23-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 22-band.*

#### **84-modda. Ota-onalik huquqini cheklash oqibatlar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi.

*(84-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi XIV-bobining 1 paragrafi ("Ayollarga va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul shaxslarga beriladigan qo'shimcha kafolatlar"), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrda PF-1657-sonli "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevralda 44-sonli "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, "Ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun har oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1113, 14.03.2002-y.).*

Ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onasi (ulardan biri)ning o'ziga nisbatan ota-onalik huquqi cheklangan bola turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota-ona va boshqa qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan mulkiy huquqlarini, shu jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi.

Ota-ona ikkalasining ota-onalik huquqi cheklangan taqdirda bola vasiylik va homiylik organi qaramog'iga olib beriladi.

#### **85-modda. Bolaning sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bilan ko'rishishi**

Sud tomonidan ota-onalik huquqi cheklangan ota-onaning bolasi bilan ko'rishishi unga salbiy ta'sir ko'rsatmasa, bola bilan ko'rishishga ruxsat berilishi mumkin. Ota-onaning bola bilan

ko'rishishiga vasiylik va homiylik organining roziligi bilan yoxud vasiy (homiy)ning, bolaning tutingan ota-onasi yoki bola turgan muassasa ma'muriyatining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

### **86-modda. Ota-onalik huquqi cheklanishini bekor qilish**

Agar ota-ona (ulardan biri)ning ota-onalik huquqlari cheklanishiga asos bo'lgan holatlar barham topsa, sud ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan bolani ota-onasiga (ulardan biriga) qaytarish va ushbu Kodeksning 83-moddasida nazarda tutilgan cheklashlarni bekor qilish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Agar bolani ota-onasiga (ularning biriga) qaytarish uning manfaatlariga zid bo'lsa, sud bolaning fikrini hisobga olib, da'voni qanoatlantirishni rad qilishga haqlidir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 22-bandining sakkizinchi xatboshisi.*

### **87-modda. Bolaning hayoti yoki sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda bolani olish**

Bolaning hayoti va sog'lig'i bevosita xavf ostida qolganda vasiylik va homiylik organi bolani ota-onadan (ularning biridan) yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan zudlik bilan olishga haqlidir. Bolani zudlik bilan olish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining tegishli hujjatiga asosan amalga oshiriladi.

Bola olinganda vasiylik va homiylik organi tezda prokurorga xabar berishi, bolani vaqtincha muayyan yerga joylashtirishi va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi bolani olish to'g'risida hujjat qabul qilganidan keyin yetti kun ichida ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularning ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat etishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni 12-moddasi birinchi qismining birinchi, o'n to'rtinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi nizomning 14 va 15-bandlari.*

### **88-modda. Sudda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni ko'rishda vasiylik va homiylik organining ishtiroki**

Sud tomonidan bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolar ko'rilayotganda, bolaning himoyasi uchun kim da'vo taqdim qilganligidan qat'i nazar, ishda ishtirok etish uchun vasiylik va homiylik organi jalb qilinishi kerak.

Vasiylik va homiylik organi bolaning hamda uni o'z tarbiyasiga berishni talab qilayotgan shaxs (shaxslar)ning turmush sharoitlarini tekshirishi va tekshirish natijalarini hamda unga asoslangan nizo mohiyatiga oid xulosasini sudga taqdim qilishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi nizomning 59 va 60-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 23-sonli "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 26-bandi.*

### **89-modda. Bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bolalarni tarbiyalash bilan bog‘liq ishlarga doir sudning hal qiluv qarorlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ijrochisi tomonidan ijro qilinadi.

*(89-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar ota-ona (bolani o‘z qaramog‘iga olgan boshqa shaxs) sudning hal qiluv qarori ijro etilishiga to‘sqinlik qilsa, unga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan choralar qo‘llaniladi.

*(89-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 71-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 198<sup>1</sup>-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 232-moddasi.*

Bolani olish va uni boshqa shaxs (shaxslar)ga berish bilan bog‘liq sudning hal qiluv qarorlarini majburiy tartibda ijro etish albatta vasiylik va homiylik organining hamda bola tarbiyalashga berilayotgan shaxs ishtirokida, zarur hollarda esa, ichki ishlar organi vakili ishtirokida amalga oshirilishi lozim.

Sudning bolani olish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini bolaning manfaatlariga zarar yetkazilmagan tarzda ijro etishning imkoni bo‘lmaganda, bola sudning ajrimiga ko‘ra tarbiyalash muassasasiga, davolash muassasasiga, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasiga yoki shunga o‘xshash boshqa muassasaga vaqtincha joylashtirilishi mumkin.

### **13-bob. Ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari**

#### **90-modda. Oilada ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquqiy munosabatlari**

Ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas.

Ota-ona ham voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas.

Ota-ona va bolalarning ular o‘rtasidagi umumiy mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi O‘zbekiston Respublikasi **Fuqarolik kodeksi** bilan belgilanadi.

Voyaga yetmagan bolalar o‘z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta‘minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta‘minoti uchun olingan mablag‘, pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo‘lib, bolaning ta‘minoti, tarbiyasi va ta‘lim olishi uchun sarflanishi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf etishga doir vakolatlar amalga oshirilayotganda fuqarolik qonunchiligida belgilangan qoidalar qo‘llaniladi.

*(90-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 27—29-moddalari.*



### **91-modda. Ota-ona va bolalarning alohida-alohida mulki**

Ota-ona va bolalarning alohida-alohida mulki bo'lishi mumkin va birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin.

### **92-modda. Ota-ona va bolalarning umumiy mulki**

Ota-ona va o'n to'rt yoshga to'lgan voyaga yetmagan bolalar o'rtasida qonunda belgilangan tartibda umumiy mulk huquqi vujudga kelishi mumkin.

Ota-ona va voyaga yetmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujudga keltirish to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning umumiy mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi fuqarolik qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*(92-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 18-bobi ("Umumiy mulk") va "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi.*

### **93-modda. Bolalarning oiladagi xususiy mulki**

Voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk egasi bo'lish huquqiga egadirlar.

Voyaga yetmagan bolalarning qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tariqasida olgan mol-mulki, shuningdek shaxsiy mehnati va tadbirkorlik faoliyati natijasida orttirgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyatiga qo'shgan mablag'i va undan orttirgan daromadi, agar bola bilan ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolari o'rtasida boshqacha tartibni belgilovchi shartnoma bo'lmasa, voyaga yetmaganlarning xususiy mulki hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishidagi buyumlari (kiyim-kechak, poyabzal, ishlab chiqarish qurollari, o'quv anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulki hisoblanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 16-bobi ("Shaxsiy mulk") va O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 18-moddasi.*

### **94-modda. Voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulkini boshqarish va tasarruf etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-ona, farzandlikka oluvchilar, vasiylar va homiylar voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulkini fuqarolik qonunchiligida belgilangan tartibda boshqaradilar va tasarruf etadilar.

*(94-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 27,29-moddalari.*

### **95-modda. Ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy nizolarni hal qilish**



Ota-ona va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida kelib chiqqan mulkiy nizolar sud tomonidan umumiy asoslarda hal qilinadi. Bunday hollarda voyaga yetmagan bolalarning huquqini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

## V BO'LIM. OILA A'ZOLARINING VA BOSHQA SHAXSLARNING ALIMENT MAJBURIYATLARI

### 14-bob. Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari

#### 96-modda. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyati

Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi birinchi qismi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o'n to'rt yoshga to'lgan bola voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

*(96-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi O'RQ-608-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/608/0278-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 99-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-ona va bola alohida-alohida yashagan taqdirda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o'n to'rt yoshga to'lgan bola bir vaqtning o'zida ota va onadan voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqli.

*(96-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-martdagi O'RQ-608-sonli Qonuniga asosan to'rtinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020-y., 03/20/608/0278-son)*

#### 97-modda. Bolalarga ta'minot berishda ota-ona majburiyatlarining tengligi

Voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash va ularga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir.

#### 98-modda. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash tartibi

Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibini o'zaro kelishgan holda belgilashga haqlidirlar.

Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibi va shakli haqida ota-ona o'rtasidagi kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va bolaning manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 99 va 131-moddalari.*

### **99-modda. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga to'laydigan aliment miqdori**

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun — to'rt dan bir qismi; ikki bola uchun — uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun — yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

*(99-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### **100-modda. Ota-onaning voyaga yetgan bolalariga aliment to'lashi**

Ota-ona voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishi shartdir.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berish ota-onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Ota-ona o'rtasida bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal qilinadi.

### **101-modda. Ota-onaning voyaga yetgan bolalariga to'laydigan aliment miqdori**

Ota-onadan voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga undiriladigan alimentning miqdori sud tomonidan aliment to'lashi shart bo'lgan ota-onaning oilaviy va moddiy ahvoli hisobga olinib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

### **102-modda. Ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdorini aniqlash tartibi**

Ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdori aliment to'lovchining oylik ish haqiga va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida yoki pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Aliment to'lashi shart bo'lgan ota-onaning ish haqi va (yoki) boshqa daromadi doimo bir xilda bo'lmay, o'zgarib tursa yoxud daromadining bir qismini natura tarzida oladigan bo'lsa, shuningdek daromaddan ulush tarzida aliment undirish imkoniyati bo'lmasa yoki ota-ona rasman belgilangan ish haqi yoki daromadga ega bo'lmasa, voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun to'lanishi lozim bo'lgan aliment miqdori har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

### **103-modda. Bolalarning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlar**

Ota-ona favqulodda holatlar (bolaning og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqalar) tufayli kelib chiqqan, bolaning ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishi shart.

Qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishdan bosh tortgan ota (ona)dan sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olib, qo'shimcha xarajatlarni qisman pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

### **104-modda. Aliment undirishda hisobga olinadigan daromadlar**

Aliment O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdagi daromadlardan ushlab qolinadi.

Chet el valyutasida olinadigan daromadlar aliment undiriladigan kunda amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo‘yicha so‘mlarda hisoblanadi.

### **105-modda. Aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to‘lashdan ozod qilish**

Aliment to‘layotgan ota-onaning boshqa voyaga yetmagan bolalari bo‘lib, undan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirilganda o‘sha bolalar aliment olayotgan bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta‘minlanib qoladigan bo‘lsa, shuningdek aliment to‘layotgan ota (ona) nogiron bo‘lib, moddiy jihatdan qiynalib kelayotgan bo‘lsa yoki aliment olayotgan shaxs mustaqil daromadga ega bo‘lgan taqdirda, aliment miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkin.

Agar voyaga yetmagan bola davlat yoki nodavlat muassasalarining to‘liq ta‘minotida bo‘lsa, sud aliment to‘layotgan ota yoki onaning moddiy ahvolini hisobga olib, to‘lanayotgan aliment miqdorini kamaytirish yoki uni aliment to‘lashdan ozod qilish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Aliment miqdorini kamaytirish yoki uni to‘lashdan ozod qilish uchun asos bo‘lgan holatlar tugaganda manfaatdor taraf aliment qonunda belgilangan miqdorda undirilishini talab qilib, sudga murojaat etishga haqli.



*LexUZ sharhi*

*Qarang:mazkur Kodeksning 99-moddasi.*

### **106-modda. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ta‘minot berish**

Ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta‘minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta‘lim berish davlat tomonidan to‘liq amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi.*

### **107-modda. Bolalar muassasalariga joylashtirilgan bolalar uchun aliment undirish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan bolani ota-onasidan olish va uni bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini chiqarishda sud ota va onaning har biridan mazkur bola foydasiga ushbu Kodeksning 99-moddasida belgilangan miqdorlarda alimentlar undiradi. Bunda undirilgan alimentlar mazkur bola nomiga ochilgan bank hisobvarag‘ida jamlanadi va u voyaga yetganda to‘lanadi.

*(107-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

### **108-modda. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalarning ta‘minot talab qilish huquqi**

Mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj voyaga yetgan bolalar ota-onasidan, agar ular yo‘q bo‘lsa, qarindoshlari va ushbu Kodeksda ko‘rsatilgan boshqa shaxslardan o‘z ta‘minoti uchun aliment talab qilish huquqiga ega. Bunday hollarda aliment miqdori sud tomonidan aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvoli hisobga olinib, pul bilan to‘lanadigan qat‘iy summada belgilanishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 16-bobi (“Qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari”).*

### **109-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta’minot berish majburiyati**

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta’minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart.

Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog‘ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g‘amxo‘rlik qilish va ularga moddiy yordam ko‘rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi.

### **110-modda. Ota-onaga beriladigan ta’minot miqdori va tartibi**

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o‘z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo‘yin tovlasalar, ta’minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-ona, aliment undirish haqidagi talabni o‘z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo‘yganligidan qat’i nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olishi lozim.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan aliment undirish nizosi uzil-kesil hal bo‘lgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha vaqtincha to‘lab turilishi lozim bo‘lgan summani ko‘rsatib, ajrim chiqarishi mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

*(110-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### **111-modda. Ota-onaning ta’minoti uchun qilinadigan qo‘shimcha xarajatlar**

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onasining kasalligiga va boshqa uzrli sabablarga ko‘ra qilinadigan qo‘shimcha xarajatlarda ishtirok etishlari shart.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar tomonidan qo‘shimcha xarajatlar ixtiyoriy ravishda qoplanmasa, talab qilinayotgan summa sud tartibida undirilishi mumkin.

### **112-modda. Nizo sudda hal etilgunga qadar aliment undirish**

Bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasida ota (ona) deb yozilgan shaxsdan aliment undirish to‘g‘risidagi nizo uzil-kesil hal etilgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha undan ushbu Kodeksda belgilangan miqdorda vaqtincha aliment undirish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 99-moddasi.*

### **113-modda. Bolalarni ota-onasiga ta’minot berish majburiyatidan ozod qilish**

Agar sud ota-onaning ota-onalik majburiyatini bajarishdan bo‘yin tovlaganligini aniqlasa, bolalarni mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onasiga ta’minot berish majburiyatidan ozod qilishi mumkin.

### **114-modda. Aliment undirish to‘g‘risidagi sud qarorini ijro etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Aliment undirish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori yoki sud buyrug'i qonunchilikda belgilangan tartibda ijro etiladi.

*(114-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 226-moddasi va V-bo'limi ("Sud qarorlarining ijrosi") hamda O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni.*

### **115-modda. Sudning bir necha hal qiluv qarorlari bo'yicha undiriladigan aliment miqdorini belgilash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Boshqa-boshqa ota-onadan tug'ilgan voyaga yetmagan bolalar uchun sudning bir necha hal qiluv qarorlariga asosan bir ota (ona)dan undirilayotgan alimentning umumiy miqdori ushbu Kodeksning 99-moddasida nazarda tutilgan miqdordan oshib ketsa, aliment to'lovchi ota (ona) aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarori yoki sud buyrug'i kimning foydasiga chiqqan bo'lsa, o'sha shaxslarning har biriga nisbatan alimentning miqdorini tegishincha kamaytirish to'g'risida da'vo taqdim etishi mumkin.

*(115-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

Sud sudlarning barcha hal qiluv qarorlariga binoan to'lanishi lozim bo'lgan, ushbu Kodeks 99-moddasida belgilangan aliment miqdoridan kelib chiqqan holda, bolalarga nisbatan sudlarning hal qiluv qarorlari mavjud bo'lsa, ularning har biriga tegishli bo'lgan alimentning teng ulushdagi yangi miqdorini belgilaydi.

Alimentning miqdorini kamaytirishga asos bo'lgan holatlar tugagan taqdirda, voyaga yetmagan bolalari uchun aliment oluvchi shaxs ushbu Kodeksning 99-moddasida ko'rsatilgan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

### **116-modda. Aliment to'lashdan bosh tortganlik uchun javobgarlik**

Voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar ushbu Kodeksning 79-moddasiga asosan ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122-moddasi.*

Ota-onasiga moddiy yordam berish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarorlarini bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 123-moddasi.*

## **15-bob. Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari**

### **117-modda. Er-xotinning bir-biriga ta'minot berish majburiyatlari**

Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida, o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lgan o'rtadagi bolaga qaragan

yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo'lgan xotin (er)dan sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega.

### **118-modda. Nikohdan ajralganidan keyin sobiq er (xotin)ning ta'minot olish huquqi**

Etarli mablag'ga ega bo'lgan sobiq er (xotin)dan:

sobiq xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida;

o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);

nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab bir yil davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);

nikohdan ajralgan paytdan boshlab besh yil ichida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo'lsa, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir.

Nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotinga to'lanadigan aliment miqdori va uni to'lash tartibi sobiq er-xotin o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanishi mumkin.

### **119-modda. Er-xotin (sobiq er-xotin)dan sud tartibida undiriladigan aliment miqdori**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Er-xotin (sobiq er-xotin) o'rtasida aliment to'lash to'g'risida kelishuv mavjud bo'lmagan hollarda er yoki xotinga (sobiq er yoki xotinga) sud tartibida undirib beriladigan aliment miqdori sud tomonidan er yoki xotinning (sobiq er yoki xotinning) moddiy va oilaviy ahvolini hamda taraflarning e'tiborga loyiq boshqa manfaatlarini e'tiborga olib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi, biroq bu summa qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

*(119-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### **120-modda. Er va xotinni bir-birlariga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish yoki bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklash**

Sud quyidagi hollarda:

agar er-xotin nikohda qisqa vaqt mobaynida bo'lgan bo'lsa;

agar o'z ta'minoti uchun mablag' to'lanishini talab qilayotgan er yoki xotinning noloyiq xulq-atvori tufayli nikohdan ajratilgan bo'lsa;

agar yordamga muhtoj er yoki xotinning mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi uning spirtli ichimliklarni, giyovandlik vositalarini, psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi yoki qasddan jinoyat sodir etishi oqibatida yuz bergan bo'lsa, er (xotin)ni yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz xotin (er)ga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishi yoxud bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklab qo'yishi mumkin.

### **121-modda. Er (xotin)ning aliment olish huquqining tugashi**

Er-xotinning bir-biridan ta'minot olish huquqi ushbu Kodeksning 117 va 118-moddalariga muvofiq ta'minot olish uchun asos bo'lgan shartlar tugagan taqdirda, shuningdek nikohdan ajralgan yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin yangi nikohga kirganda tugaydi. Bunday hollarda, agar ta'minot uchun mablag' sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilgan bo'lsa, uni to'lashi shart bo'lgan er (xotin) bundan buyon aliment to'lashdan ozod etish haqidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

## **16-bob. Qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari**



## **122-modda. Voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz shaxslarga ta'minot berish majburiyati**

Ushbu Kodeksning 123—128-moddalarida ko'rsatilgan shartlar mavjud bo'lsa, voyaga yetmagan, shuningdek voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj shaxslarga ta'minot berish majburiyati sud tomonidan ularning qarindoshlari: bobo, buvi, nevara, aka-uka, opa-singil, shuningdek o'gay ota va o'gay ona, o'gay o'g'il va o'gay qiz, doimiy tarbiyada bo'lgan shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

### **123-modda. Bobo va buvining o'z nevaralariga ta'minot berish majburiyati**

Ota-onasi yo'q bo'lgan yoki ulardan ta'minot ololmaydigan voyaga yetmagan nevaralariga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan bobo va buvi zimmasiga yuklatilishi mumkin. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj nevaralarning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, ularga nisbatan ham bu majburiyat bobo va buvining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

### **124-modda. Nevaralarning bobo va buvilariga ta'minot berish majburiyati**

O'zlarining voyaga yetgan bolalaridan yoxud eri yoki xotinidan (sobiq eri yoki xotinidan) ta'minot ololmaydigan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bobo va buviga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan voyaga yetgan mehnatga layoqatli nevaralar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

### **125-modda. Aka-uka va opa-singillarning voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz aka-uka va opa-singillariga ta'minot berish majburiyati**

Ota-onasi yo'q bo'lgan yoki ulardan ta'minot ololmaydigan voyaga yetmagan aka-uka va opa-singillariga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan aka-uka va opa-singillar zimmasiga yuklatilishi mumkin. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj aka-uka va opa-singillarning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, ularga nisbatan ham bu majburiyat aka-uka va opa-singillarning zimmasiga yuklatilishi mumkin.

### **126-modda. Doimiy tarbiyada bo'lganlarning o'z tarbiyachilariga ta'minot berish majburiyati**

Mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmagan yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmaydigan, amalda ularni tarbiyalaganlarga ta'minot berish majburiyati ularning doimiy tarbiyasi va ta'minotida bo'lgan shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkin. Bunday majburiyat vasiylikda (homiylilikda) turgan shaxslar zimmasiga yuklatilmaydi.

Sud tarbiyada bo'lganlarni, agar ular tarbiyachilarning tarbiyasi va ta'minotida besh yildan kam turgan bo'lsa, ushbu moddada ko'rsatilgan majburiyatdan ozod qilishga haqli.

### **127-modda. O'gay ota va o'gay onaning o'gay o'g'il va o'gay qizlariga ta'minot berish majburiyati**

O'gay ota va o'gay onaning tarbiyasida yoki ta'minotida bo'lgan voyaga yetmagan o'gay o'g'il va o'gay qizlarning ota-onasi yo'q bo'lsa yoxud o'z ota-onasidan yetarli mablag' ololmayotgan bo'lsa, ularga ta'minot berish majburiyati o'gay ota va o'gay ona zimmasiga yuklatilishi mumkin. Voyaga yetgan yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz o'gay o'g'il va o'gay qizlarning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) va voyaga yetgan mehnatga layoqatli

bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun yetarli mablag' ololmasa, o'gay ota va o'gay onaning zimmasiga ularga nisbatan ham shunday majburiyat yuklatilishi mumkin.

### **128-modda. O'gay o'g'il va o'gay qizlarning o'gay ota va o'gay onaga ta'minot berish majburiyati**

Mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'gay ota va o'gay onaning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, ularga ta'minot berish majburiyati o'gay o'g'il va o'gay qizlar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Agar o'gay o'g'il va o'gay qizni o'gay ota va o'gay ona besh yildan kam vaqt davomida tarbiyalagan va ta'minot bergan bo'lsa, shuningdek ular o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan bo'lsa, sud o'gay o'g'il va o'gay qizni o'gay otasi va o'gay onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishga haqli.

### **129-modda. Qarindoshlar va boshqa shaxslardan undiriladigan alimentning miqdori**

Qarindoshlar va boshqa shaxslardan voyaga yetmagan bolalar uchun, shuningdek voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj shaxslar ta'minoti uchun undiriladigan alimentning miqdori sud tomonidan aliment undirilayotgan shaxsning va aliment olayotgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvolini hisobga olib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

Aliment miqdorini belgilashda, talab aliment to'lashi shart bo'lgan shaxslarning barchasiga yoxud ularning bir nechtasiga yoki faqat biriga qaratilgan bo'lishidan qat'i nazar, ana shu shaxslar hisobga olinadi.

## **17-bob. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv**

### **130-modda. Aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish**

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to'lash tartibi) aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan aliment oluvchi o'rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi.

### **131-modda. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvning shakli**

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

Aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishning qonunda belgilangan shakliga rioya qilmaslik, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan oqibatlarga olib keladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 112-moddasining birinchi qismi va 115-moddasi.*

Notarial tartibda tasdiqlangan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega bo'ladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" gi Qonuni 5-moddasining 4-bandi.*

### **132-modda. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish**

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv taraflarning o'zaro roziligi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish ham o'sha shaklda amalga oshiriladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvning bajarilishini bir taraflama rad qilishga yoki uning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolidagi jiddiy o'zgarishlar yuz berganda hamda aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida ular o'zaro kelisha olmaganda, manfaatdor taraf kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqli. Sud aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish masalasini hal qilishda taraflarning e'tiborga loyiq har qanday manfaatini hisobga olishga haqli.

### **133-modda. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentlar miqdori**

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentlarning miqdorini taraflar shu kelishuvda belgilaydilar.

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentning miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

### **134-modda. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan aliment to'lash usullari va tartibi**

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv bo'yicha aliment to'lash usullari va tartibi shu kelishuv bilan belgilanadi.

Alimentlar: aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlarda; vaqti-vaqtida pul bilan to'lanadigan qat'iy summada; bir yo'la pul bilan to'lanadigan qat'iy summada; mol-mulk bilan yoki kelishuvda qayd etilgan boshqa usullarda to'lanishi mumkin.

Aliment to'lash haqidagi kelishuvda aliment to'lashning turli usullarini birga qo'shib qo'llash nazarda tutilishi mumkin.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv bo'yicha to'lanadigan aliment miqdorini indeksatsiya qilish shu kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi. Agar aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvda indeksatsiya qilish tartibi ko'rsatilmagan bo'lsa, indeksatsiya ushbu Kodeksning [144-moddasiga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

## **18-bob. Alimentlarni to'lash va undirish tartibi**

### **135-modda. Alimentni ixtiyoriy to'lash**

Aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan yoki o'z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyida yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagi mablag' olayotgan joyida to'lanadi.

Voyaga yetmagan bolalar uchun olinadigan aliment arizaga muvofiq ushbu Kodeksning [99-moddasida](#) belgilangan miqdorlarda ushlab qolinadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlar bola voyaga yetguniga qadar bo'lgan davr uchun, shu jumladan ko'chmas yoki ko'char mulk yoxud boshqa qimmatli ashyoni berish yo'li bilan oldindan to'lanishi mumkin.

*(135-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-459-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Alimentning ixtiyoriy ravishda to'lab turilishi aliment undiruvchini aliment undirish haqidagi da'vo yoki ariza bilan xohlagan vaqtda sudga murojaat qilish huquqidan mahrum etmaydi.

*(135-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

### **136-modda. Alimentni sud tartibida undirish**

Aliment olish huquqiga ega bo'lgan shaxs, aliment talab qilish huquqi vujudga kelganidan so'ng qancha muddat o'tganidan qat'i nazar, xohlagan vaqtda aliment undirish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Mazkur shaxs, nizo bo'lmagan taqdirda, voyaga yetmagan bolalar uchun aliment undirish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli bo'lib, bu ariza buyruq tartibida ish yuritish tarzida ko'rib chiqiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 18-bobi ("Sud buyrug'i).*

Aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab undiriladi.

Agar ta'minot uchun mablag' olish choralari sudga murojaat qilingunga qadar ko'rilganligi, ammo aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning uni to'lashdan bosh tortganligi oqibatida aliment olinmaganligi sud tomonidan aniqlansa, o'tgan davr uchun aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab uch yillik muddat doirasida undirib olinishi mumkin.

*(136-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda 568-II-son Qonuniga muvofiq ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlar bilan almashtirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)*

### **137-modda. Ish beruvchining (tashkilot ma'muriyatining) aliment ushlab qolish majburiyati**

Aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish joyidagi ish beruvchi yoki pensiya, nafaqa, stipendiya olayotgan joyidagi tashkilot ma'muriyati aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuvga yoki ijro varaqasiga asosan aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqidagi va (yoki) boshqa daromadidan har oyda aliment ushlab qolib, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsga ish haqi to'langan va (yoki) boshqa daromadlar olingan kundan boshlab, uch kundan kechiktirmay aliment oluvchi shaxsga aliment to'lashi yoki aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning hisobidan unga o'tkazishi shart.

### **138-modda. Aliment to'lovchining ish, o'qish joyi va turar joyi o'zgarganligi haqida xabar qilish majburiyati**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sudning hal qiluv qarori yoki aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv bo'yicha aliment ushlab qolishi lozim bo'lgan ish beruvchi (tashkilot ma'muriyati) aliment to'lovchi shaxs bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida, shuningdek uning yangi ish, o'qish joyi yoki turar joyi unga ma'lum bo'lsa, bu haqda sudning hal qiluv qarori ijro etiladigan joydagi davlat ijrochisiga yoki aliment oluvchi shaxsga uch kun muddat ichida xabar berishi shart.

*(138-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 16-oktabrda O'RQ-448-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2017-y.)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan muddatda o'z ish, o'qish joyi yoki turar joyi o'zgarganligi haqida, shuningdek qo'shimcha ish haqi

yoki boshqa daromadi to'g'risida davlat ijrochisini hamda aliment oluvchi shaxsni xabardor qilishi shart.

*(138-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 16-oktabrdagi O'RQ-448-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2017-y.)*

Ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi qismlarida** ko'rsatilgan ma'lumotlarni belgilangan muddatda uzrsiz sabablarga ko'ra xabar qilmagan taqdirda, aybdor mansabdor shaxs va aliment to'lovchi shaxs qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 198<sup>2</sup>-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 232-moddasi.*

### **139-modda. Aliment qarzini undirish**

Aliment qarzi aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadidan undiriladi. Ish haqi va (yoki) boshqa daromad yetarli bo'lmaganda, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning banklar va boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlarida turgan pul mablag'idan, tijorat va tijoratchi bo'lmagan tashkilotlarga shartnoma asosida o'tkazilgan pul mablag'idan undiriladi, mulk huquqining o'tishiga olib keluvchi shartnomalar bundan mustasno. Bu mablag' yetarli bo'lmaganda undirish aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning qonun bo'yicha undirish qaratilishi mumkin bo'lgan har qanday mol-mulkiga qaratiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Undirish aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning hisobvaraqlaridagi pul mablag'iga va uning boshqa mol-mulkiga qonunchilikda belgilangan tartibda qaratiladi.

*(139-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunining 5-bobi ("Undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish").*

Aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv yoki ijro varaqasi asosida o'tgan davrdagi aliment qarzi ijro varaqasi yoki aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv aliment undirish uchun taqdim qilingunga qadar o'tgan uch yildan ortiq bo'lmagan muddat uchun undiriladi.

Alimentlar ijro varaqasi yoki aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv bo'yicha aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning aybi bilan undirilmagan bo'lsa, alimentlar ushbu moddaning **uchinchi qismida** ko'rsatilgan uch yillik muddatdan qat'i nazar, o'tgan barcha vaqt uchun undiriladi.

### **140-modda. Aliment qarzining miqdorini belgilash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Aliment qarzining miqdori davlat ijrochisi tomonidan sudning hal qiluv qarori yoki aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuvda belgilangan aliment miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

*(140-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 16-oktabrdagi O'RQ-448-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2017-y.)*

Ushbu Kodeksning **99-moddasiga** asosan voyaga yetmagan bolalarga to'lanadigan aliment qarzining miqdori aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadi miqdoridan kelib chiqqan holda aliment undirilmagan vaqt uchun hisoblab chiqiladi. Agar aliment

to‘lashi shart bo‘lgan shaxs shu davrda ishlamagan bo‘lsa yoki uning ish haqi va (yoki) daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan bo‘lsa, aliment qarzi undirilayotgan vaqtda aliment O‘zbekiston Respublikasidagi o‘rtacha oylik ish haqi miqdori bo‘yicha hisoblab chiqiladi. Agar qarzni bunday belgilash taraflardan birining manfaatlariga jiddiy putur yetkazsa, manfaatlariga putur yetkazilgan taraf sudga murojaat qilishga haqlidir. Sud taraflarning moddiy va oilaviy ahvolini va boshqa e‘tiborga loyiq holatlarni inobatga olib, qarzning pul bilan to‘lanadigan qat’iy summasini belgilashi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi 7-sonli “Sud hujjatlarini bajarishdan bo‘yin tovlash va ularning ijro etilishiga to‘sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlikka doir qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 16-bandi.*

#### **141-modda. Aliment qarzini to‘lashdan ozod qilish**

Taraflar o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq aliment qarzini to‘lashdan ozod qilish yoki uni kamaytirishga taraflarning o‘zaro roziligi bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi, voyaga yetmagan bolalarga aliment to‘lanadigan hollar bundan mustasno.

Agar sud aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs kasalligi yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra aliment to‘lamaganligini aniqlasa hamda uning moddiy va oilaviy ahvoli yig‘ilgan aliment qarzni to‘lashga imkon bermaydi deb topsa, aliment to‘lovchining da‘vosiga binoan uni aliment qarzlarini to‘lashdan to‘la yoki qisman ozod etishga haqlidir.

#### **142-modda. Alimentni o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun javobgarlik**

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvga muvofiq aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan bo‘lsa, aybdor shaxs ushbu kelishuvda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan bo‘lsa, aybdor shaxs kechiktirilgan har bir kun uchun to‘lanmay qolgan aliment summasining o‘ndan bir foizi miqdorida aliment oluvchiga neustoyka to‘laydi.

Aliment oluvchi aliment o‘z vaqtida to‘lanmaganligida aybdor aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsdan aliment to‘lash majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaganlik oqibatida yetkazilgan barcha zararlarning neustoyka bilan qoplanmagan qismini undirishga ham haqlidir.

#### **143-modda. Alimentni hisobga o‘tkazishga va qaytarib olishga yo‘l qo‘yilmasligi**

Aliment qarshi qo‘yilgan boshqa talablar bilan hisobga o‘tkazilishi mumkin emas.

Alimentni qaytarib olishga yo‘l qo‘yilmaydi, quyidagi hollar bundan mustasno:

aliment oluvchi tomonidan yolg‘on ma‘lumotlar berish yoki qalbaki hujjatlar taqdim etish oqibatida aliment undirish to‘g‘risida chiqarilgan sudning hal qiluv qarori bekor qilinganda;

aliment oluvchi tomonidan aldash, qo‘rqitish yoki zo‘rlilik ta‘siri ostida tuzilgan aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv haqiqiy emas deb topilganda;

aliment to‘lanishiga asos bo‘lgan sudning hal qiluv qarori, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv yoki ijro varaqasi qalbakiligi fakti sud hukmi bilan aniqlanganda.

Agar ushbu moddaning **ikkinchi qismida** ko‘rsatilgan harakatlar voyaga yetmagan bolaning yoki voyaga yetgan muomalaga layoqatsiz aliment oluvchining vakili tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, aliment qaytarib olinmaydi, to‘langan aliment summalari esa, aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning da‘vosiga ko‘ra aybdor vakildan undiriladi.

#### **144-modda. Alimentni indeksatsiya qilish**

*Oldingi tahrirga qarang.*



Sudning hal qiluv qaroriga asosan pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada undirilayotgan alimentlarni indeksatsiya qilish alimentlar ushlab qolinayotgan joyda qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

*(144-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Indeksatsiya qilish maqsadida alimentning miqdori sud tomonidan qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining muayyan qismiga mos ravishda pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada belgilanadi.

*(144-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **145-modda. Aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs chet davlatga ketayotganida aliment to‘lanishi**

Aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotganida qonunga muvofiq o‘zi ta‘minot berishi lozim bo‘lgan aliment oluvchilar bilan ushbu Kodeksning 130—134-moddalariga asosan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishi shart.

Aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuvga erishilmagan taqdirda manfaatdor shaxs aliment miqdorining pul bilan to‘lanadigan qat’iy summada belgilanishi va alimentni bir yo‘la to‘lash to‘g‘risida yoki aliment evaziga muayyan mol-mulknini berish yoxud alimentni boshqa usulda to‘lash to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Voyaga yetmagan bolalar ta‘minoti uchun alimentlar oldindan to‘langan yoki aliment to‘lash majburiyatini ta‘minlash uchun garov shartnomasi tuzilgan bo‘lsa, shaxs aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish majburiyatidan ozod etiladi.

Alimentlarni oldindan to‘lash, shuningdek aliment to‘lash majburiyatini ta‘minlash bo‘yicha garov shartnomasini tuzish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

*(145-modda O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O‘RQ-459-sonli Qonuniga asosan uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)*

#### **146-modda. Aliment miqdorini o‘zgartirish yoki aliment to‘lashdan ozod qilish**

Aliment miqdori sud tartibida belgilanganidan keyin taraflardan birining moddiy yoki oilaviy ahvoli o‘zgarsa, sud ulardan har birining talabiga ko‘ra alimentning belgilangan miqdorini o‘zgartirishga yoki aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsni aliment to‘lashdan ozod qilishga haqli. Aliment miqdorini o‘zgartirishda yoki uni to‘lashdan ozod qilishda sud taraflarning e‘tiborga loyiq boshqa manfaatlarini hisobga olishga haqli.

#### **147-modda. Aliment majburiyatlarining tugatilishi**

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvda belgilangan aliment majburiyatlari taraflardan birining o‘limi, mazkur kelishuv muddatining o‘tishi yoki unda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra tugaydi.

Sud tartibida undiriladigan aliment to‘lash:

bola voyaga yetganda yoki voyaga yetmasdan turib to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lganda;

foydasiga aliment undirilayotgan bola farzandlikka olinganda;

sud aliment oluvchining mehnatga layoqati tiklangan yoki uni yordamga muhtoj bo'lmay qolgan deb topganda;

mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj aliment oluvchi sobiq er yoki xotin yangi nikohga kirganda;

aliment oluvchi yoki aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs vafot etganda tugatiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 22-bandi.*

## **VI BO'LIM. OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARI**

### **19-bob. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish**

#### **148-modda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish**

Ota-ona vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'lmaganda, ota-ona bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ota-ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 64-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 27-moddasining to'rtinchi qismi.*

#### **149-modda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish**

Vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek bundan buyon ularga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur kodeksning 150-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 32-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi nizom.*

Vasiylik va homiylik organidan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasining beshinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi nizomning 4-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tashkilotlarning (maktabgacha ta'lim tashkilotlarining, umumta'lim muassasalarining, davolash muassasalarining va boshqa muassasalarning), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligidan xabardor bo'lgach, yetti kunlik muddat ichida bu haqda bolalar haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organlariga xabar berishlari shart. Vasiylik va homiylik organi bunday ma'lumotlarni olgan kundan e'tiboran uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi va bunda bolaning ota-ona yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlansa, uni joylashtirish masalasi hal bo'lguniga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi shart.

*(149-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 3-dekabrda O'RQ-653-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi nizomining 56, 59 va 60-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 26-maydagi 110-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Vasiylik va homiylik organiga ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi haqida"gi nizom.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaganlik, shuningdek bunday bolalarni joylashtirishda qonunchilik talablarini buzganlik uchun ushbu moddaning **uchinchi qismida** ko'rsatilgan muassasalarning rahbarlari va organlarning mansabdor shaxslari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

*(149-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47<sup>1</sup>, 47<sup>2</sup>-moddalari.*

### **150-modda. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish**

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 20 — 22-boblari.*

Ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan oilaga yoki muassasalarga tarbiyalash uchun joylashtirish masalasi hal bo'lgunga qadar vasiylik (homiylik) majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

## **20-bob. Farzandlikka olish**

## **151-modda. Farzandlikka olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va faqat ularning manfaatlarini koʻzlab yoʻl qoʻyiladi.

Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga koʻra, vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosliliigi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga toʻgʻri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi.

Farzandlikka olish toʻgʻrisidagi ishlar Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan qoidalar boʻyicha alohida ish yuritish tartibida, farzandlikka oluvchilar (oluvchi), vasiylik va homiylik organlari vakillari, shuningdek prokuror ishtirokida sud tomonidan koʻrib chiqiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 29-bobi.*

Aka-ukalar va opa-singillarni turli shaxslar tomonidan farzandlikka olishga yoʻl qoʻyilmaydi, farzandlikka olish bolalarning manfaatlariga muvofiq kelgan hollar bundan mustasno.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) toʻgʻrisida"gi nizom birinchi boʻlimining 1,2, 3-bandlari, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar boʻyicha qonunchilikni qoʻllash amaliyoti toʻgʻrisida"gi qarorining 6, 14, 15-bandlari.*

*(151-moddaning matni Oʻzbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi OʻRQ-352-sonli Qonuni tahririda — OʻR QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

## **152-modda. Farzandlikka olishi mumkin boʻlgan shaxslar**

Voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar boʻlishi mumkin, quyidagi shaxslar bundan mustasno:

ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30 —31-moddalari.*

asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida roʻyxatda turuvchilar;

ushbu Kodeks 169-moddasining birinchi qismida koʻrsatilgan asoslar boʻyicha farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;

*Oldingi tahrirga qarang.*

hayotga, sogʻliqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sogʻliq uchun xavfli boʻlgan jinoyatlar, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, shaxsning ozodligiga, shaʼni va qadr-qimmatiga qarshi (bundan tuhmat, haqorat qilish mustasno), fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi (bundan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzish, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish mustasno), tinchlikka va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, Oʻzbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar, oʻzganing mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bogʻliq boʻlgan jinoyatlar, jinoiy yoʻl bilan topilgan mol-mulkni

olish yoki o'tkazish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish yoxud nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, boshqaruv tartibiga, shuningdek odil sudlovga qarshi jinoyatlar, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (bundan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish, sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish, tog'kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish mustasno), giyohvandlik vositalarining yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasidan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy mansabdorlik jinoyatlari sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

*(152-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-oktabrdagi O'RQ-723-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.10.2021-y., 03/21/723/0983-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

ushbu modda birinchi qismining oltinchi xatboshisida ko'rsatilgan jinoyatlar jumlasiga kirmaydigan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

ushbu modda birinchi qismining oltinchi va yettinchi xatboshilarida ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun o'ziga nisbatan jinoyat ishi ayblilik to'g'risidagi masala hal qilinmay turib tugatilganlar;

farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklarga chalinganlar. Mazkur kasalliklarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

*(152-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-oktabrdagi O'RQ-723-sonli Qonuniga asosan yettinchi, sakkizinchi va to'qqizinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.10.2021-y., 03/21/723/0983-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq o'n besh yoshdan kam bo'lmasligi shart, bundan o'gay ota va o'gay ona yoxud farzandlikka olinuvchining yaqin qarindoshlari tomonidan farzandlikka olish hollari mustasno.

*(152-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-oktabrdagi O'RQ-723-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.10.2021-y., 03/21/723/0983-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi nizom birinchi bo'limining 9-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 13-bandi.*

### **153-modda. Farzandlikka olishni sir saqlash**

Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi va boshqa hujjatlardagi farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinganlarning ota-onasi emasligini bildiradigan mazmundagi yozuvlar bilan tanishtirish, bu yozuvlardan ko'chirmalar va boshqa ma'lumotlarni farzandlikka



oluvchilarning rozilgisiz, agar ular vafot etgan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining rozilgisiz berish taqiqlanadi.

Farzandlikka oluvchining yoki vasiylik va homiylik organining erkiga hilof ravishda farzandlikka olish sirini oshkor qilgan shaxslar qonun bilan belgilangan javobgarlikka tortiladilar.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 125-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi nizom birinchi bo'limining 18-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 7-bandi.*

#### **154-modda. Farzandlikka olishda ustunlik huquqiga ega bo'lgan shaxslar**

Farzandlikka olishda quyidagilar ustunlik huquqiga ega bo'ladilar:  
turar joyidan qat'i nazar farzandlikka olinuvchining qarindoshlari;  
farzandlikka olinuvchi bola oilasida yashayotgan shaxs;  
aka-uka, opa-singillarni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar;

o'gay ota va o'gay ona;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi nizom birinchi bo'limining 11-bandi.*

#### **155-modda. Farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olinishiga roziligi**

O'n yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Farzandlikka olishda bolaning roziligi vasiylik va homiylik organlari yoki sud tomonidan farzandlikka olish to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganda aniqlanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi nizom birinchi bo'limining 15-bandi "v" kichik bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 12-bandi.*

*(155-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

#### **156-modda. Bolaning rozilgisiz farzandlikka olish**

Agar bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo'lsa va ularni o'z otasonasi deb e'tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning rozilgisiz amalga oshirilishi mumkin.

#### **157-modda. Farzandlikka oluvchining eri (xotini)ning bolani farzandlikka olishga roziligi**



Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinmayotgan bo'lsa, bunga xotin (er)ning roziligi talab etiladi.

Agar er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo'lsalar va er (xotin)ning turar joyi noma'lum bo'lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 11-bandi.*

### **158-modda. Vasiylik yoki homiylikdagi bolani farzandlikka olish**

Vasiylik yoki homiylikdagi bolani farzandlikka olish, agar uning ota-onasidan rozilik talab qilinmaydigan bo'lsa, vasiy yoki homiyning roziligi bilan amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarori 10-bandining ikkinchi xatboshisi.*

### **159-modda. Ota-onaning bolaning farzandlikka olinishiga roziligi**

Bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi talab etiladi.

Ota-ona bolaning muayyan bir shaxs (shaxslar) tomonidan farzandlikka olinishiga rozilik berishlari yoki farzandlikka berishga rozilik bildirib, farzandlikka oluvchilarni tanlash ixtiyorini vasiylik va homiylik organiga havola qilishlari mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ota-onaning bolaning farzandlikka olinishiga roziligi notarial tasdiqlangan yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola joylashgan muassasa rahbari tomonidan yoki farzandlikka olish amalga oshirilayotgan joydagi yoxud ota-ona yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organi tomonidan tasdiqlangan arizada bayon etilgan bo'lishi kerak, shuningdek farzandlikka olish to'g'risida ish yuritilayotganda bevosita sudda bayon etilishi mumkin.

*(159-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-aprelda O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sud tomonidan farzandlikka olish to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarilguniga qadar ota-ona bolaning farzandlikka olinishiga bergan roziligini qaytarib olishga haqli.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli "Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 9-bandi.*

*(159-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-aprelda O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

### **160-modda. Ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olish**

Farzandlikka olish quyidagi hollarda:

ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;

ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;

ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e‘lon qilingan bo‘lsa;

ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo‘lsa, ota-onaning roziligisiz amalga oshiriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli “Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 10-bandining uchinchi xatboshisi.*

### **161-modda. Davlat bolalar muassasalari tarbiyasi va ta‘minotidagi bolalarni farzandlikka olish**

Davlat bolalar muassasalarining tarbiyasi va ta‘minotidagi bolalarni farzandlikka olish, agar ularning ota-onasi roziligi talab etilmaydigan bo‘lsa, shu muassasa ma‘muriyatining roziligi bilan amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **161<sup>1</sup>-modda. Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olish mazkur bola doimiy yashayotgan davlatning qonunchilikda belgilangan tartibda, farzandlikka olinayotgan bola yetim va farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yaqin qarindoshi bo‘lgan yoki o‘z vatanida turli sabablarga ko‘ra farzandlikka olinishi mumkin bo‘lmagan hollarda amalga oshiriladi.

*(161<sup>1</sup>-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olishda farzandlikka olinayotgan bolaning O‘zbekiston Respublikasiga kirishi va O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashi uchun O‘zbekiston Respublikasi vakolatli organining ruxsatnomasi talab qilinadi.

*(161<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 23-sentabrda O‘RQ-411-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O‘R QHT, 2016-y., 39-son, 457-modda)*

### **162-modda. Bolani takroran farzandlikka olish**

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi birinchi qaror sud tartibida bekor qilingandan keyingina bolaning takroran farzandlikka olinishiga yo‘l qo‘yiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(163-modda O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-aprelda O‘RQ-352-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

### **164-modda. Farzandlikka olishda tug‘ilishni qayd etish daftariga o‘zgartirish kiritish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Sudning farzandlikka olish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab o‘n kun ichida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari farzandlikka olinayotganning tug‘ilishi qayd etilgan daftarga zarur o‘zgartirishlar kiritishi lozim.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning 63-bandi.*

*(164-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

*Oldingi tahririga qarang.*

Farzandlikka oluvchilar bolaning tug‘ilishi yozilgan daftarga, agar bu haqda sudning hal qiluv qarorida ko‘rsatilgan bo‘lsa, uning ota-onasi deb yozilishi kerak.

*(164-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

Zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug‘ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo‘lmagan farq bilan o‘zgartiriladi. Agar bola o‘n yoshdan oshmagan bo‘lsa, tug‘ilgan joyi ham O‘zbekiston Respublikasi doirasida o‘zgartirilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi nizom birinchi bo‘limining 16-bandi.*

### **165-modda. Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari**

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o‘z bolalariga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-ona qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo‘qotadilar hamda o‘zaro majburiyatlardan ozod bo‘ladilar.

*Oldingi tahririga qarang.*

Bola bitta shaxs tomonidan farzandlikka olingan taqdirda, uning manfaatlarini ko‘zlab, bolaning shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlari, agar farzandlikka oluvchi erkak bo‘lsa, onasining iltimosiga ko‘ra yoki, agar farzandlikka oluvchi ayol bo‘lsa, otasining iltimosiga ko‘ra saqlanib qolishi mumkin.

Agar farzandlikka olinayotgan bolaning otasi yoki onasi vafot etgan bo‘lsa, vafot etgan otaning yoki onaning ota-onasi (buva yoki buvi) iltimosiga ko‘ra bolaning shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlari, agar bolaning manfaatlari shuni talab etsa, vafot etgan otasining yoki onasining qarindoshlariga nisbatan saqlanib qolishi mumkin.

*(165-modda O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuniga asosan uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi nizom birinchi bo‘limining 19—20-bandlari.*

### **166-modda. Farzandlikka olishda boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya yoki nafaqaning saqlanishi**

Farzandlikka olinish vaqtida boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya yoki nafaqa olish huquqiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar farzandlikka olingan taqdirda ham ana shu huquqni saqlab qoladilar.

### **167-modda. Farzandlikka olishning vujudga kelish vaqti**

Farzandlikka olingan bolaning tug‘ilishini qayd etish daftariga zarur o‘zgartirishlar kiritilgan kun farzandlikka olishning vujudga kelgan vaqti hisoblanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi nizom birinchi bo‘limining 17-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli “Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 8-bandi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(168-modda O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

### **169-modda. Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari**

Farzandlikka olish agar farzandlikka oluvchilar:

o‘z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo‘lsalar;

ota-onalik huquqini suiiste‘mol qilayotgan bo‘lsalar;

farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo‘lsalar;

muttasil ichkilikbozlikka yoki giyovandlikka muhtalo bo‘lgan bo‘lsalar bekor qilinishi lozim.

Farzandlikka olinuvchining xulq-atvori farzandlikka oluvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatiga putur yetkazayotgan, ularning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf solayotgan bo‘lsa, farzandlikka olinuvchi voyaga yetganidan keyin farzandlikka olish bekor qilinishiga yo‘l qo‘yiladi.

Sud boshqa asoslarga ko‘ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning fikrini hisobga olgan holda farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi nizomning VII bo‘limi (“Farzandlikka olishni bekor qilish uchun asoslar va uning oqibatlarini”).*

### **170-modda. Farzandlikka olishni bekor qilishni talab etish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Farzandlikka olinganning ota-onasi, prokuror, vasiylik va homiylik organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar, shuningdek o‘n olti yoshga to‘lgan farzandlikka olingan bola farzandlikka olishni sud tartibida bekor qilishni talab etish huquqiga ega.

*(170-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-446-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 37-son, 978-modda)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli “Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori 32-bandining ikkinchi xatboshisi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **171-modda. Farzandlikka olishni bekor qilish tartibi**

Farzandlikka olishni bekor qilishga faqat sud tartibida yo‘l qo‘yiladi. Farzandlikka olishni bekor qilish to‘g‘risidagi ishlarni hal qilishda o‘n yoshga to‘lgan bolaning fikri hisobga olinadi.

Sudning farzandlikka olishni bekor qilish to‘g‘risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab sud uch kun ichida ushbu hal qiluv qaroridan ko‘chirmani farzandlikka olinayotgan bolaning tug‘ilganligi ro‘yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 11-dekabrda 21-sonli “Sudlar tomonidan farzandlikka olish haqidagi ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 25 – 30-bandlari.*

*(171-modda O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **172-modda. Farzandlikka olishni bekor qilish oqibatlari**

*(172-moddaning nomi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olinuvchi bola bilan farzandlikka oluvchilarning (farzandlikka oluvchilarning qarindoshlari) o‘zaro huquq va majburiyatlari tugatiladi hamda bola bilan uning ota-onasi (ota-onaning qarindoshlari) o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar tiklanadi.

*(172-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Farzandlikka olish bekor qilinganda, bola sudning hal qiluv qarori bilan ota-onasiga olib beriladi.

*(172-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

Bolaning ota-onasi yo‘q bo‘lsa, shuningdek bolani ota-onasiga berish uning manfaatlariga zid bo‘lsa, u vasiylik va homiylik organlari qaramog‘iga beriladi.

Sudning hal qiluv qarorida farzandlikka olinuvchining familiyasi, ismi va ota ismini saqlash-saqlanmasligi ko‘rsatilishi kerak.

O‘n yoshga to‘lgan bolaning familiyasi, ismi va ota ismi faqat uning roziligi bilan o‘zgartirilishi mumkin.

## **21-bob. Vasiylik va homiylik**

### **173-modda. Vasiylik va homiylikning maqsadi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vasiylik o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida belgilanadi.

Homiylik o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta‘minot, tarbiya va ta‘lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida belgilanadi. Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra



mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko'ra homiylik belgilanishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 32-moddasi, O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining ikkinchi va uchinchi xatboshilari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi nizomning 52-bandi.*

*(173-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 20-yanvardagi O'RQ-365-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 4-son, 45-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **174-modda. Vasiylik va homiylikni belgilash**

Vasiylik va homiylik tuman, shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Vasiylik yoki homiylik vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning yashash joyi bo'yicha, agar shaxs muayyan yashash joyiga ega bo'lmasa, vasiyning yoki homiyning yashash joyi bo'yicha belgilanadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni 10-moddasining uchinchi qismi, 4-bobi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi nizomning 8 va 9-bandlari.*

*(174-modda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 20-yanvardagi O'RQ-365-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 4-son, 45-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **175-modda. Vasiylik va homiylik sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Vasiylik va homiylikni belgilash va tugatish, davlat organlarining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlarini amalga oshirish, vasiylar va homiylar huquqlarini amalga oshirish hamda majburiyatlarini bajarish, o'zlariga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar huquqlarini amalga oshirish hamda mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

*(175-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida"gi nizom.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(176 — 193-moddalar O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 20-yanvardagi O'RQ-365-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2014-y., 4-son, 45-modda)*

### **22-bob. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat)**

#### **194-modda. Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat)**



Ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan shaxs vasiylik va homiylik organlari bilan kelishilgan holda bolalarni oldindan tanlab oladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Oʻn yoshga toʻlgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish tartibi va shartlari qonunchilik bilan belgilanadi.

*(194-moddaning toʻrtinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### **195-modda. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuv**

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuv vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-ona oʻrtasida tuziladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuvda bolalarni taʼminlash, tarbiyalash va ularga taʼlim berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shuningdek bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlari koʻrsatilishi kerak.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Bolalarni tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish toʻgʻrisida namunaviy bitim (roʻyxat raqami 2831, 10.10.2016-y.).*

Kelishuv tuzilishidan oldin bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari va oila aʼzolarining sogʻligʻi tekshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularga bir yoʻla kiyim-bosh va poyabzal beradi, bolani oilaga tarbiyaga olgan shaxsga esa, oilaga tarbiyaga olingan bolaning taʼminoti uchun qonunchilikda belgilangan miqdorda har oyda nafaqa toʻlab turadi.

*(195-moddaning toʻrtinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) toʻgʻrisida”gi nizom ikkinchi boʻlimining III-bobi (“Bolalarni oilaga tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuv”), “Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan taʼminlash hamda bolani oʻz tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa toʻlash tartibi toʻgʻrisida”gi nizom (roʻyxat raqami 1189, 18.11.2002-y.).*

### **196-modda. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuvning bekor qilinishi**

Bolalarni tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuv uzrli sabablar (kasalligi, oilaviy yoki mulkiy mavqeyining oʻzgarishi, tarbiyasidagi bolalar bilan oʻzaro bir-birini tushunmaslik va boshqa sabablar) mavjud boʻlsa, bolalarning tutingan ota-onasi tashabbusi bilan, shuningdek vasiylik va homiylik organlarining tashabbusi bilan yoki bola ota-onasiga qaytarilgan yoxud bola farzandlikka olingan taqdirda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish toʻgʻrisidagi kelishuvni bekor qilishga oid nizolar sud tartibida hal qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi nizom ikkinchi bo‘limining V-bobi (“Bolalarni tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuvning bekor qilinishi”).*

### **197-modda. Oilaga tarbiyaga olingan bolalarning huquqlari**

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar:

o‘zlariga tegishli bo‘lgan aliment, shuningdek pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni olish;

uy-joyga bo‘lgan mulk huquqi yoki uy-joylardan foydalanish;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 32-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

qonunchilikka muvofiq uy-joy olish huquqlarini saqlab qoladilar.

*(197-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 6-bobi (“Munitsipal, idoraviy uy-joy fondi va aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidagi turar joylarni berish”), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-avgustdagi 164-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta‘minlash tartibi to‘g‘risida”ginizom*

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish, ota-onasi va qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqiga ham egadirlar.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 66 va 67-moddalari.*

Bolaning manfaatiga daxldor har qanday masala oilada hal qilinayotganida bola o‘z fikrini bildirishga haqli.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 68-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi nizom ikkinchi bo‘limining VI-bobi (“Oilaga tarbiyaga olingan bolalarning huquqlari”).*

### **198-modda. Tutingan ota-ona**

Voyaga yetgan har ikki jinsdagi shaxslar tutingan ota-ona bo‘lishlari mumkin, quyidagilar bundan mustasno:

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 31-bobi (“Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish”).*

sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan shaxslar;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 79 va 83-moddalari.*

qonun bilan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasi.*

ilgari farzandlikka bola olgan, lekin ushbu Kodeks 169-moddasining **birinchi qismida** nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilingan shaxslar; qasddan qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 21-moddasi.*

sog'lig'ining holatiga ko'ra bolani tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shaxslar. Tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Tutingan ota-ona tarbiyaga olingan bolaga nisbatan vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunining 31, 32-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi nizom ikkinchi bo'limining VII-bobi ("Tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari").*

### **199-modda. Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarning javobgarligi**

Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslar o'z huquqlaridan g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda, tarbiyasidagi bolalarga zarar keltirgan holda foydalansalar, shuningdek ularni nazoratsiz hamda zarur moddiy yordamsiz qoldirsalar, vasiylik va homiylik organi bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo'zg'atishga haqli.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 48-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi nizom ikkinchi bo'limining 19-bandi.*

### **200-modda. Oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib borish**

Vasiylik va homiylik organlari oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib boradilar.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida"gi nizom ikkinchi bo'limining 19-bandi.*

## **VII BO'LIM. FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARINI QAYD ETISH**

## 23-bob. Umumiy qoidalar

### 201-modda. Fuqarolik holati dalolatnomalari

Fuqarolik holati dalolatnomalari — fuqarolar hayotidagi tugʻilish, oʻlim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish kabi voqea hamda faktlarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishidir.

Farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini oʻzgartirish, jinsni oʻzgartirish kabi voqea va faktlar ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan fuqarolik holatlari dalolatnomalariga tegishli oʻzgartirishlar kiritishda ifodalanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish davlat ahamiyatiga molik hujjatlar boʻlib, ikki nusxada tuziladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 38-moddasi.*

### 202-modda. Gerbli guvohnomalar

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari asosida qatʻiy hisobda turadigan, maʼlum seriyasi, tartib raqami boʻlgan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining muhri va mansabdor shaxsning imzosi qoʻyilgan, davlat gerbi tasvirlangan guvohnomalar beriladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-sentabrdagi 768-sonli qaroriga 1 — 4a-ilovalar.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Gerbli guvohnoma berishda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari **qonunda** belgilangan tartibda va miqdorda davlat bojini hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va miqdorda gerb yigʻimini undiradi.

*(202-moddaning ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi OʻRQ-600-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi “Davlat boji toʻgʻrisida”gi Qonuni bilan tasdiqlangan Davlat boji stavkalari miqdorlarining 5-bandi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-apreldagi 119-sonli “Gerbli guvohnomalar berganlik uchun gerb yigʻimi miqdorini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarorining 5-bandi.*

Davlat gerbi tasvirlangan guvohnomani qalbakilashtirish qonunga binoan taʼqib etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 228-moddasi.*

### 203-modda. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi organlar

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqarolik holati dalolatnomalari tuman va shaharlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish boʻlimlarida qayd etiladi, shaharcha, qishloq va ovullarda esa, oʻlim — fuqarolar yigʻini raislari (oqsoqollari) tomonidan ham qayd etilishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksining 27-bobi (“Oʻlimni qayd etish”), Oʻzbekiston Respublikasi “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari toʻgʻrisida”gi Qonunining 15-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning 6-bandi, VII bobi (“Oʻlimni qayd etish”).*

*(203-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-255 sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 37-son, 313-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘limni ro‘yxatga olish borasidagi harakatlari o‘zlari joylashgan hududlardagi tegishli fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlarining nazorati ostida bo‘ladi.

*(203-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-255 sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2010-y., 37-son, 313-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qayd etiladi.

*(203-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

#### **204-modda. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari saqlash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlarining idoraviy arxivlarida yetmish besh yil saqlanadi. Ushbu muddat o‘tgach, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari belgilangan tartibda davlat arxivlariga topshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlarining idoraviy arxivlari faoliyatini tashkil etish, shuningdek ulardagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari saqlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

*(204-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning XIV bobi (“FHDY organlari arxivi”).*

### **24-bob. Tug‘ilishni qayd etish**



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning IV bobi (“Tug‘ilganlikni qayd etish”).*

#### **205-modda. Tug‘ilishni qayd etish tartibi va muddatlari**

Bolalarning tug‘ilishini qayd etish majburiy bo‘lib, bolalar tug‘ilgan joydagi yoki otadan birining doimiy yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida bir oy muddat ichida amalga oshirilishi lozim.

Bolaning o‘lik tug‘ilganligi, tibbiy muassasaning xabariga binoan 24 soat davomida shu muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan qayd etiladi.

#### **206-modda. Tug‘ilishni qayd etish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar**

Bolaning tug‘ilishi uning tug‘ilganligi haqidagi tibbiy ma’lumotnoma, ota-onaning oilaviy holati va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asosida qayd etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash muassasalarida tug‘ilganlik haqidagi tibbiy ma’lumotnoma, perinatal o‘lim va o‘lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni berish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi (ro‘yxat raqami 2089, 23.03.2010-y.).*

### **207-modda. Tug‘ilish to‘g‘risidagi yozuvlar daftariga bolaning ota-onasini yozish**

O‘zaro nikohda bo‘lgan ota va onadan birining arizasiga ko‘ra tug‘ilish to‘g‘risidagi yozuvlar daftarida ular bolaning ota-onasi deb yoziladi.

Agar ota-ona o‘zaro nikohda bo‘lmasalar, bolaning onasi to‘g‘risidagi yozuv onaning arizasiga ko‘ra, otasi to‘g‘risidagi yozuv esa, bolaning otasi va onasining birgalikdagi arizasi bo‘yicha yoxud sudning hal qiluv qaroriga asosan yoziladi. Ona vafot etgan yoki u muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoxud onalik huquqidan mahrum etilganda, shuningdek onaning qayerda ekanligini aniqlash mumkin bo‘lmaganda ota to‘g‘risidagi yozuv otaning arizasiga ko‘ra vasiylik va homiylik organining roziligi bilan yoziladi.

Nikohda bo‘lmagan onadan bola tug‘ilganda ota-onaning birgalikdagi arizasi va otalikni belgilash to‘g‘risida sudning hal qiluv qarori bo‘lmasa, tug‘ilish to‘g‘risidagi yozuvlar daftarida otaning familiyasi onaning familiyasi bo‘yicha, otaga tegishli ism, otasining ismi va millati — ona ko‘rsatmasi bo‘yicha yoziladi.

Agar ota-onaning ikkalasi ham noma’lum bo‘lsa, ota va ona haqidagi yozuvlar vasiylik va homiylik organi ko‘rsatmasiga asosan yoziladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning 22, 28 — 30, 32 — 34-bandlari.*

Nikohda bo‘lgan va sun‘iy homila hosil qilish yoki embrionni ko‘chirishga yozma rozilik bergan shaxslarda shu usullarni qo‘llashi natijasida bola tug‘ilsa, tug‘ilish to‘g‘risidagi yozuvlar daftariga ular shu bolaning ota-onasi deb yoziladi.

O‘zaro nikohda bo‘lgan va boshqa ayolga homilani rivojlantirish maqsadida embrionni ko‘chirishga yozma rozilik bergan shaxslar bolani tuqqan ayolning (qondosh onaning) roziligi bilangina bolaning ota-onasi deb yozilishi mumkin.

### **208-modda. Tug‘ilishni qayd etish bilan bir vaqtda otalikni belgilash**

Agar ota-ona bolaning tug‘ilishini qayd etish bilan bir vaqtda otalikni belgilash haqida birgalikda ariza bersalar, ota haqidagi ma’lumotlar berilgan ariza asosida yoziladi, bolaga familiya ota-onaning kelishuviga binoan beriladi.

### **209-modda. Tug‘ilish qayd etilganidan keyin otalik belgilanishi munosabati bilan o‘zgartishlar kiritish**

Ota-onaning arizasi, sudning hal qiluv qarori, otaning arizasiga asosan (ona vafot etganda, uning turar joyini aniqlashning imkoniyati bo‘lmaganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onalik huquqidan mahrum qilinganda) tug‘ilish dalolatnomasi yozilgan joyda tug‘ilish to‘g‘risidagi yozuvlar daftariga ota to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish yo‘li bilan otalik belgilanadi.

### **210-modda. Farzandlikka olingan bolaning tug‘ilish to‘g‘risidagi yozuvlar daftariga o‘zgartishlar kiritish**

*Oldingi tahrirga qarang.*



Sudning farzandlikka olish to'g'risidagi hal qiluv qaroriga ko'ra, tug'ilish to'g'risidagi dalolatnoma yozuvi turgan joydagi fuqarolik holatlarini yozish organi tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga zarur o'zgartishlar kiritadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning 66-bandi.*

*(210-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **211-modda. Farzandlikka olish bekor qilinganida sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish**

Farzandlikka olish sudning hal qiluv qarori bilan bekor qilinganida, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi farzandlikka olish haqidagi barcha yozuvlarni bekor qiladi va bolaning tug'ilishi to'g'risidagi dastlabki yozuvlarni tiklaydi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning 70, 71-bandlari.*

*(211-modda O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

### **25-bob. Nikoh tuzilganligini qayd etish**



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning V bobi ("Nikohni qayd etish").*

#### **212-modda. Nikoh tuzilganligini qayd etish joyi va vaqti**

Nikohni qayd etish nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Alohida hollarda nikohni qayd etish kasalxona yoki uyda amalga oshiriladi.

Nikohni qayd etish tantanali vaziyatda amalga oshirilishi mumkin.

Nikohlanuvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga nikoh qayd etilishidan bir oy ilgari nikohga kirish to'g'risida ariza beradilar.

#### **213-modda. Nikohni qayd etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar**

Nikohga kirishni xohlovchilar ariza berish chog'ida o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni, ilgari nikohda bo'lgan shaxslar esa, avvalgi nikoh tugatilganligi haqidagi hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

#### **214-modda. Nikohga kirayotganda familiya tanlash**

Nikohlanuvchi shaxslar nikohga kirish to'g'risidagi arizalarida umumiy familiya olish yoki nikoh tuzilganidan keyin ham o'z familiyasida qolish haqidagi istaklarini ko'rsatishlari shart.

#### **215-modda. Nikoh tuzilganligi to'g'risida guvohnoma. Hujjatlarga qo'yiladigan belgilar**

Nikoh tuzilganligi qayd etilganidan keyin nikoh tuzilganligi to'g'risida guvohnoma beriladi.

Shu bilan bir vaqtda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga nikoh qayd etilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

Er-xotindan birining familiyasi o'zgarganda shaxsni tasdiqlovchi hujjatga uni almashtirish lozimligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

### **216-modda. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan nikoh tuzilganligini qayd etish**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan nikoh tuzganligini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

### **217-modda. Nikoh tuzilganligini qayd etishning alohida hollari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tergov hibsonalarida, ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalarda saqlanayotgan shaxslar bilan tuziladigan nikohni qayd etish ushbu muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*(217-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning V bobi 3 paragrafi ("Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi shaxslar bilan nikohni qayd etish").*

### **26-bob. Nikohdan ajralishni qayd etish**



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning VI bobi ("Nikohdan ajratish").*

### **218-modda. Er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda nikohdan ajralishni qayd etish**

Er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda nikohdan ajralishda ariza beruvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga bergan arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolalari va mulkiy nizolari yo'qligini tasdiqlashlari shart.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 42-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari er-xotinni yashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yashtirish komissiyasini ariza berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

*(218-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-yanvardagi O'RQ-456-sonli Qonuniga asosan uchinchi qismi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son)*

### **219-modda. Er-xotindan birining arizasi bo'yicha nikohdan ajralishni qayd etish**

Er-xotindan birining arizasi bo'yicha nikohdan ajralishni qayd etish uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga quyidagilar taqdim etiladi:

er (xotin)ning muomalaga layoqatsiz yoxud bedarak yo'qolgan deb topilganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori;

er (xotin) uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko'chirma, shuningdek sudlangan er (xotin)ning o'rtadagi bolalari va mol-mulki yuzasidan nizosi yo'qligi to'g'risidagi tilxat.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 43-moddasi.*

### **220-modda. Nikohdan ajralgandan keyin er-xotinning familiyasi**

Er-xotindan birining nikohgacha bo'lgan familiyasini qaytarish to'g'risidagi istagi nikohdan ajralish haqidagi arizada ko'rsatilishi lozim.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 46-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 30-bandi.*

### **221-modda. Nikohdan ajralganlik to'g'risida guvohnoma. Hujjatlarga qo'yiladigan belgilar**

Nikohdan ajralish qayd etilganidan keyin sobiq er-xotinning har biriga nikohdan ajralganlik to'g'risida guvohnoma beriladi.

Er-xotindan birining familiyasi o'zgartirilganda, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga uni almashtirish lozimligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

Nikohdan ajralishni qayd etgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi nikoh qayd etilgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga nikoh tugatilganligi haqida belgi qo'yish to'g'risida xabarnoma yuboradi.

### **222-modda. O'zbekiston Respublikasida o'zaro nikoh tuzgan chet el fuqarolarining nikohdan ajralishini qayd etish**

O'zbekiston Respublikasida o'zaro nikoh tuzgan chet el fuqarolarining nikohdan ajralishini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

## **27-bob. O'limni qayd etish**



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning VII bobi ("O'limni qayd etish").*

### **223-modda. O'limni qayd etish tartibi**

O'limni qayd etish marhumning yashash joyi yoki o'lim sodir bo'lgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi sudning hal qiluv qaroriga asosan o'limni qayd etish mazkur qarorni chiqargan sud joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Hayotining birinchi haftasi davomida o'lgan bolalarning tug'ilganligi va o'limi tibbiy muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida qayd etiladi.

O‘lim sodir bo‘lganligi haqidagi ariza o‘lim sodir bo‘lgan kuni yoki murda topilgach, uch kundan kechiktirmay berilishi zarur.

O‘limni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd etmasdan marhumni dafn qilish taqiqlanadi.

#### **224-modda. O‘limni qayd etishning alohida hollari**

Temir yo‘l yoki avtomobil transportida sodir bo‘lgan o‘limni qayd etish yaqinroq joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Havo yoki suv kemasida sodir bo‘lgan o‘limni qayd etish havo kemasi yerga qo‘ngan joydagi yoki suv kemasi to‘xtagan portdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsi aniqlanmaganlarning o‘limini qayd etish davlat sog‘liqni saqlash tizimi tibbiy muassasasining xabariga asosan shu muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Bu hollarda o‘lim haqidagi guvohnoma marhumning shaxsi aniqlangandan keyingina beriladi.

#### **225-modda. O‘limni qayd etishda taqdim etiladigan hujjatlar**

O‘limni qayd etish uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga o‘lim haqidagi tibbiy guvohnoma yoki sudning fuqaroni vafot etgan deb e‘lon qilish haqidagi hal qiluv qarori, shuningdek marhumning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash muassasalarida tug‘ilganlik haqidagi tibbiy ma‘lumotnoma, perinatal o‘lim va o‘lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni berish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi (ro‘yxat raqami 2089, 23.03.2010-y.).*

#### **28-bob. Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish**



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”ning X bobi (“Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish”).*

#### **226-modda. Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish haqidagi arizalarni ko‘rib chiqish tartibi**

Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish haqidagi arizalar ariza beruvchi o‘n olti yoshga to‘lgandan keyin u yashab turgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish to‘g‘risidagi xulosa ichki ishlar organlari tomonidan ushbu shaxs tegishli tekshiruvdan o‘tkazilgandan keyingina tuzilishi mumkin.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining familiya, ism va ota ismini o‘zgartirishni rad etganligi ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 27-moddasi birinchi qismi 4-bandi.*

#### **227-modda. Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish oqibatlari**

Familiya, ism va ota ismi o‘zgartirilganda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari yozuvlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritadi.

Er (xotin)ning familiyasi o'zgartirilishi (unga nisbatan otalik belgilanganda ham) xotin (er)ning hamda uning voyaga yetgan bolalari familiyasini o'zgartirishga sabab bo'lmaydi.

Ota-ona har ikkalasining familiyasi o'zgartirilganda ularning o'n olti yoshga to'lmagan bolalari familiyasi ham o'zgartiriladi.

Agar ota-onadan biri o'z familiyasini o'zgartirsa, ularning o'n olti yoshga to'lmagan bolalari familiyasini o'zgartirish masalasi ota-onaning kelishuviga binoan, bunday kelishuv bo'lmaganda esa, vasiylik va homiylik organlari tomonidan hal etiladi.

Ota ismining o'zgartirilishi uning o'n olti yoshga to'lmagan bolalarining ota ismi albatta o'zgartirilishiga sabab bo'ladi.

## **29-bob. Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish**



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning IX bobi ("Dalolatnoma yozuvlarini o'zgartirish, tuzatish, to'ldirish").*

### **228-modda. Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish kiritish haqidagi arizalarni ko'rib chiqish joyi**

O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish yetarli asoslar mavjud bo'lib, manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lmaganda ushbu dalolatnoma yozuvlari saqlanayotgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

O'n olti yoshga to'lgan shaxslarning tug'ilish, nikoh tuzish, nikohdan ajralishni qayd etish daftarlariga o'zgartirishlar kiritish ularning arizalariga binoan amalga oshiriladi.

O'n olti yoshga to'lmagan shaxslarning tug'ilish haqidagi yozuvlar daftariga o'zgartirishlar kiritish ularning ota-onasi arizasiga binoan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlariga tuzatishlar kiritish haqidagi arizalar ariza beruvchining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ko'rib chiqiladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritishni rad etish to'g'risidagi xulosasi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 27-moddasi birinchi qismi 4-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1992-yil 13-noyabrdagi 5a-sonli "Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi xatoliklarni belgilashni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan qo'llanishi haqida"gi qarori.*

### **229-modda. Jins o'zgarganda dalolatnoma yozuviga tuzatishlar kiritish**

Jins o'zgarganda dalolatnoma yozuviga tuzatish kiritish faqat sog'liqni saqlash organlari xulosasiga asosan amalga oshiriladi.

## **30-bob. Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini tiklash va bekor qilish**



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari"ning VIII ("Dalolatnoma yozuvlarini tiklash") va XI boblari ("Dalolatnoma yozuvlarini bekor qilish").*

### **230-modda. Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini tiklash**

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini tiklash deganda ilgari shunday yozuv bo'lganligini tasdiqlovchi yetarli asoslar bo'lganida, ularni qayta tiklab qo'yish tushuniladi.

### **231-modda. Tug'ilish, nikoh tuzish va nikohdan ajralish to'g'risidagi yozuvlarni tiklash**

Tug'ilish, nikoh tuzish, nikohdan ajralish haqidagi dalolatnomalar yozuvlari bu yozuvlar kimga nisbatan tuzilgan bo'lsa, faqat ana shu shaxslarning arizasiga ko'ra tiklanadi.

Agar o'n olti yoshgacha bo'lgan bolaning tug'ilishi haqidagi yozuv yo'qolgan bo'lsa, yozuv bolaning ota-onasi, vasiysi, homiysi, bolalar muassasasi ma'muriyatining arizasiga binoan tiklanadi.

Yozuvni tiklashdan manfaatdor taraflar o'rtasida nizo bo'lsa, yozuvni tiklash O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik [kodeksiga](#) asosan amalga oshiriladi.

### **232-modda. Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini tiklash joyi**

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari ariza beruvchining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida tiklanadi.

### **233-modda. Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini bekor qilish**

Agar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi ikki va undan ortiq bir xil yozuvlar borligini aniqlasa, tiklangan yozuvlar o'sha yozuv tuzilgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida bekor qilinishi mumkin.

Agar topilgan fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarida familiya, ism, ota ismi, tug'ilgan sanasi, ota-ona to'g'risidagi ma'lumotlarda jiddiy farq bo'lsa, tiklangan fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari sudning hal qiluv qarori bilan bekor qilinadi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1992-yil 13-noyabrdagi 5a-sonli "Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi xatoliklarni belgilashni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan qo'llanishi haqida"gi qarorining 11-bandi.*

## **VIII BO'LIM. CHET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLAR ISHTIROKIDAGI OILAVIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH**

### **234-modda. Chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning oilaviy munosabatlardagi huquq va majburiyatlari**

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uning hududida oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar.

### **235-modda. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e'tirof etish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlar, agar ushbu Kodeksning [16-moddasida](#) nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

*(235-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*



O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o‘rtasida boshqa davlat hududida o‘sha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.

*(235-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### **236-modda. Nikohdan ajratish**

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘rtasidagi, shuningdek chet el fuqarolari o‘rtasidagi nikohdan ajratish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

*(236-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan eri (xotini) bilan tuzilgan nikohdan, mazkur shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanligidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi sudida ajralishga haqlidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajralish mumkin bo‘lgan hollarda bunday nikohdan ajralish O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida amalga oshirilishi mumkin.

*(236-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qarang: mazkur Kodeksning 42-moddasi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘rtasidagi nikohdan ajratish O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tegishli chet el davlatining qonunchiligiga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.

*(236-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida chet el fuqarolari o‘rtasidagi nikohdan ajratish tegishli chet el davlatining qonunchiligiga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.

*(236-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

### **237-modda. Farzandlikka olish**

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishda ham ushbu Kodeks 151 — 167-moddalarining talablariga rioya qilinishi lozim.

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishda bolaning qonuniy vakili va bola fuqarolikka ega bo‘lgan davlat vakolatli organining roziligi, shuningdek agar o‘sha davlatning qonunchiligiga muvofiq talab qilinsa, farzandlikka olish haqida bolaning ham roziligi olinishi lozim.

*(237-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar farzandlikka olish natijasida farzandlikka olingan bolaning O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo‘lsa, farzandlikka oluvchining qaysi fuqarolikka mansubligidan qat’i nazar, farzandlikka olish mumkin emas, farzandlikka olingan taqdirda esa, u sud tartibida bekor qilinishi lozim.

*(237-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan bolani farzandlikka olish farzandlikka oluvchi qaysi chet davlat fuqarosi bo‘lsa, o‘sha davlatning vakolatli organi tomonidan amalga oshirilganligi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining farzandlikka olish to‘g‘risidagi ruxsati oldindan olingan bo‘lsagina O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.



*LexUZ sharhi*

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi nizom birinchi bo‘limining 29-bandi.*

*(237-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 30-apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013-y., 18-son, 233-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs bo‘lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida chet davlatning vakolatli organi amalga oshirgan farzandlikka olish, basharti ushbu Kodeksning 152, 157 va 161<sup>1</sup>-moddalari talablariga rioya etilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.

*(237-modda O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-411-sonli Qonuniga asosan beshinchi qism bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2016-y., 39-son, 457-modda)*

### **238-modda. Chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash**

Sud yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi va boshqa organlar chet el oila huquqining normalarini qo‘llashda mazkur normalarning mazmunini ularning tegishli chet el davlatida rasmiy sharhlanishi va amaliyotda qo‘llanilishiga muvofiq tarzda aniqlaydi.

Sud, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va boshqa organlar chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash maqsadida yordam va tushuntirish olish uchun belgilangan tartibga rioya qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlarlariga murojaat qilishlari yoxud ekspertlarni jalb etishlari mumkin.

Manfaatdor shaxslar talab yoki e’tirozlarini tasdiqlash uchun o‘zlari asoslanayotgan chet el oila huquqi normalarining mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilishga va chet el oila huquqi

normalarining mazmunini aniqlash maqsadida sudga va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va oʻzga organlarga boshqa tarzda yordam berishga haqlidir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar ushbu moddaga muvofiq amalga oshirilgan choralarga qaramay, chet el oila huquqi normalarining mazmuni aniqlanmagan boʻlsa, Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi qoʻllaniladi.

*(238-moddaning toʻrtinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi OʻRQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*(Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-songa ilova; 2003-y., 1-son, 8-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2007-y., 14-son, 133-modda; 2008-y., 16-son, 117-modda; 2009-y., 37-son, 401-modda; 2010-y., 35-36-son, 300-modda, 37-son, 313-modda; 2011-y., 40-son, 410-modda; 51-son, 542-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 2014-y., 4-son, 45-modda; 2016-y., 39-son, 457-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; 29.08.2019-y., 03/19/558/3662-son, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son, 11.03.2020-y., 03/20/608/0278-son, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son; 04.12.2020-y., 03/20/653/1592-son; Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 22.10.2021-y., 03/21/723/0983-son)*